



Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadid_uz @Jadidmediauz @Jadid_rasmiy @Jadid_uz

TAHLIL

Agar biz ajdodlarimiz xotirasini ulug'lamoqchi, shu asosda o'zbek nomini, O'zbekiston nomini butun dunyoga tarannum etmoqchi ekanmiz, bu ishni birinchi navbatda kino san'ati orqali amalga oshirishimiz kerak. Aynan kino san'ati orqali jahon ekranlarini zabt etishimiz, shu yo'l bilan dunyo ahlining diqqat-e'tiborini qozonishimiz mumkin.

Shavkat MIRZIYOYEV



KETDIK, KINOGA TUSHAMIZ!

Yangi O'zbekistonda ma'naviyat va ma'rifat, adabiyot, madaniyat va san'at sohalari rivojiga ulkan ahamiyat qaratilayotganini mamlakatimiz va jahon jamoatchiligi e'tirof etayotgani bor gap. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shaxsan e'tibori, tashabbus va tavsiyalari bilan yangi-yangi g'oyalarga amalga oshirilmoqda, soha vakillari tomonidan bildirilayotgan asosli takliflar faol qo'llab-quvvatlanmoqda. Shu bois, jamiyatimizda "Prezident – ma'naviyatning bosh homiysi" degan fikr shakllanib ulguriganiga ham barchamiz guvohmiz.

Mir Alisher Navoiy bobomiz: "Yolg'uz ovuchdin kim eshitmish sado?" – deb yozganidek, qars ikki qo'ldan chiqishi hammasi ayon. Mana shunday yuksak e'tiborga javoban joylarda ham jiddiy harakat, izlanish va intilish bo'lsa, albatta, muddaoga yetmoq muammo bo'lmas. Keling, ushbu nuqtayi nazar bilan san'atlar ichida eng qudratli ta'sir kuchiga ega bo'lgan sohaga bir nazar tashlaylik, ya'nikim, birgalikda kinoga "tushib chiqaylik".

Avvalo, keyingi yillarda davlat va hukumat tomonidan qabul qilingan milliy kino san'atimizni rivojlantirishga oid eng muhim hujjatlar bilan tanishib o'taylik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-yil 7-avgustda "Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 7-aprelda "Kinematografiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda soha vakillarining ijodiy faoliyati uchun munosib sharoit yaratish to'g'risida", 2024-yil 5-iyunda "Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bag'ishlangan filmlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida", 2024-yil 7-iyulda "Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlar; 2021-yil 7-aprelda "Kino san'ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi farmon imzolangan. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining ham bu mavzuda bir qator qaror va farmoyishlari qabul qilingan.

Shu o'rinda, ushbu muhim hujjatlar davlatimiz rahbarining yaxshi an'anaga

aylangan xalq bilan muloqotlari doirasida, xususan, kino ijodkorlari bilan uchrashuvlarida bildirilgan fikr-mulohazalar, taklif va tashabbuslar asosida dunyoga kelganini alohida ta'kidlash zarur.

Avvalgi "O'zbekkino" milliy agentligi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligisifatidatashkil etildi. Qariyb chorak asrlik tanaffusdan keyin Toshkent xalqaro kinofestivali qayta tiklandi. Endilikda jahonning 50 dan ortiq mamlakatidan yuzlab taniqli kino ijodkorlar ushbu festivalga tashrif buyurmoqda. "Oltin Humo" milliy filmlarni taqdirlash marosimi, taniqli kino namoyandalarning yubiley sanalari yuqori saviyada o'tkazilmoqda.

Barchamiz yaxshi eslaymiz, yaqin yillarda ham "O'zbekfilm" nomi bilan mashhur bo'lgan maskan qanday xarob ahvolda qolgan edi. Bu joydagi ko'plab bino va inshootlar, yer maydonlari azbaroyi jon saqlash ilinjida turli tashkilot va korxonalariga ijaraga berilgan, bu yerda mebdan tortib mixgacha, kir sovundan tortib shpaklyovkagacha (o'sha vaqtda "Shpaklyovkaning eng zo'ri bizda. Manzil – "O'zbekfilm" kinostudiyasi",

degan reklama radio orqali tinimsiz aylanardi) chiqar, ta'bir joiz bo'lsa, kinodan boshqa hamma narsa bor edi.

Mashhur rejissyor va operator, O'zbekiston san'at arbobi Hotam Fayziyev bir suhbatda kuyunib aytgandi: "Taksiga chiqib, "O'zbekfilm"ga haydang", desam, haydovchi "Shpaklyovka chiqadigan joygami?" – deydi. "Bu nima degan gap!"

Quvonarli tomoni, bugun "O'zbekfilm" to'liq o'z egalari – kino ijodkorlari ixtiyorida. Katta hajmdagi qurilish va obodonlashtirish ishlari bajarilganidan so'ng, umumiy hududi qariyb 10 gektarni tashkil etadigan "O'zbekfilm" kinostudiyasi butunlay yangi ko'rinishga keldi. Davlat budgetidan 168 milliard so'm ajratilib, uning barcha bino va inshootlari rekonstruksiya qilindi. Kinostudiya negizida "O'zbekfilm" kino-konserni tashkil etilib, zamonaviy qurilma va jihozlar uchun qariyb 25 million yevrolik shartnoma imzolandi. Bugungi kunda ushbu kinokonsern o'zining zamonaviy imkoniyatlari va kino texnologiyalari bo'yicha Markaziy Osiyoda tengsiz hisoblanadi.

(Davomi 4-5-sahifalarda.)

TALQIN

O'ZBEK XOTIN-QIZLARI KECHA VA BUGUN

So'nggi yillarda tug'ilgan erkinlik muhiti va ilm-fanga bo'lgan katta e'tibor o'laroq jadallashib ketgan tarixiy izlanishlar Prezidentimizning xotin-qizlar mavqeini oila, jamiyat va davlat ishlarida yuksaltirishga qaratilgan siyosati tarixiy asosga egaligini isbotlamoqda.

Buyuk Turon davlatchiligi g'oyasi uchun kurashgan jaded bobolarimiz Amir Temur davridagi kabi o'zbek davlatini tiklash orzusida bo'lganlar. Sohibqiron va temuriylar davri tarixini mukammal o'rganganlar. O'sha davrda ayollarga bo'lgan e'tibor hamda ularning tarix oldidagi xizmatlarini o'qib, o'zlari ham xotin-qizlarning jamiyatda nufuzini ko'tarish, ularning ta'lim olishi, jamiyatda ayollarga nisbatan qarash va munosabatlarni o'zgartirish masalasida ham ilg'or fikrlarni aytib, bu qarashlar mustahkamlanishiga sababchi bo'lganlar.



(Davomi 2-sahifada.)

ORAMIZDAGI ODAMLAR

OGAHINYING "QO'LINI TUTGAN" OQSOQQOL

Xorazmda umrini el-yurtning g'ami bilan yashab kelayotgan yoshullilar juda ko'p. Bunday odamlar vohaning har bir tumanida, qo'yingki, har qishlog' u mahallasida istagancha topiladi.

Xivalik Otanazar aka Pirnazarov ana shunday insonlardan. U kishi tabarruk 81 yoshni qarshilayotgan bo'lsa-da, hali yoshiga nisbatan ancha tetik, bardam, fikri teran. U umrining 60 yilini davlat ishiga baxsh etdi. Bir joyda, bir lavozimda 30 yil rahbarlik qildi. Yana o'sha sobiq tuzumning eng qiyin davrlarida Xiva tumanidagi Ogahiy jamoa xo'jaligi boshqaruvi raisi vazifasida ishladi.

Otanazar og'a bilan ko'pdan suhbat qilishni niyat qilardim. Sababi, u Ogahiy hazratlari qadamjosini obod qilishda ko'rsatgan jonbozligi bilan vohada shuhrat qozongan.

– Otanazar og'a, sizni Ogahiyning "qo'lini tutgan rais" deydishadi. Shu iboraning ma'nosini tushuntirib bersangiz.

– Ogahiy hazratlari o'z qo'li bilan ekib ketgan balx tuti, yaratgan bog'-rog'lari, qazdirgan yop-ariqlari biz uchun ko'zga to'tiyo, muqaddas. Taqdir har bir avlod zimmasiga o'ziga yarasha og'ir yuk yuklaydi. Bilamizki, Ogahiy bobo miroblar avlodidan bo'lgan. U zotni ko'rgan bobolarimiz Polvon, Varag'zon, Xirosan, Mo'rtiman, G'o'vik yop, Bo'z yoplarni qazishgan. Otalarimiz esa o'sha yoplarni qayta qazishgan. Menga esa taqdir ulug' Ogahiy tavalludining 150, 180, 190 yillik yubileylarida qatnashish baxtini muayassar etdi.


Siz aytgan iboraga kelsak, buning tarixi uzun: 1950–1980-yillar bilan bog'liq. Bilasizmi, o'sha davrlarda hamma narsa paxta bilan o'lchanardi. Xotira, tarix, qadriyat, adabiyot, kamdan kam kishilarni qiziqitirgan. 1958-yil yozida uyimizga mashhur olim Subutoy Dolimov keldi.

(Davomi 6-sahifada.)

TAQDIMOT

"BOBURNOMA" – SEZAR DIYORIDA

Ma'lumki, Italiyaning "Sandro Teti Editore" nashriyot uyi Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarini italyan tilida chop etgan edi. Mazkur asarni atoqli italyan olimi, turkolog Federiko Pastore katta mahorat bilan tarjima qilgan. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev so'zbo'shisi bilan nashr qilingani mazkur asarning qimmatini va nufuzini yanada oshirgan.



Asarni nashr etish jarayoniga malakali tarjimonlar, muharrirlar va dizaynerlar guruhi jalb etilgani bois u yuksak saviyada yaratilgan. Boburiylar davriga oid 96 ta miniatyura bilan bezatilgan ushbu qimmatli asar Italiya bilan bir qatorda Yevropadagi ko'plab kitob markazlarida ham sotuvga chiqarilgan.

Italiyaning bir qancha shaharlarida "Boburnoma"ning italyan nashri taqdimotini o'tkazish rejalashtirilgan edi. Yaqinda Florensiya shahridagi g'arb me'morchiligining durdonasi sanalgan Palazzo Strossi saroyida ana shunday tadbir bo'lib o'tdi. Unda O'zbekistonning Italiyadagi Favqulodda va muxtor elchisi Abat Fayzullayev, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori Firdavs Abdullayev, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti direktori Bahrom Abdulhalimov, italiyalik professor Franko Kardini, Palazzo Strossi saroyi boshqaruvi rahbari, senator Rikkardo Nenchini, "Sandro Teti Editore" nashriyot uyi rahbari Sandro Teti, V&Co telekompaniyasi direktori Viktoriya Petrosyans so'zga chiqdi.

– "Boburnoma"ni Bobur ijodining durdonasi, XV-XVI asrlarda O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eronda sodir bo'lgan tarixiy voqealar haqida hikoya qiluvchi o'ziga xos ensiklopediya deyish mumkin, – deydi Rikardo Nenchini.

(Davomi 2-sahifada.)

ONAJONIM – TABIAT



YER KO'KARSA – EL KO'KARADI

yoki matonatli bog'bon hikoyasi

Vahobjon aka va Zebixon opa oilasi ko'pchilik havas qilgudek to'kis, o'zlari bir-biriga munosib juftlik edi. Ro'zg'or tashvishlariga ikkisi baravar yelka tutar, bog'mi, dalami – har yerda birga zahmat chekib, rohatini baham ko'rardi. To'ng'ichi – Nasibaxon uch yoshga to'lganda, o'g'il ko'rishlari ularni behad quvontirdi. Yaratganga shukronalar aytib, unga Hoshimjon deb ism qo'yishdi. Hali yoshiga yetmay turib yura boshlagan bolakay juda sho'x, hamma narsaga qiziquvchan, tili burro edi. Vahobjon aka o'sha paytlarda kolxozda cho'ponlik qilar, erta bahorda qo'y-qo'zilarni tog'ga haydab ketib, kuzakda uyga qaytardi. Eriting issiq-sovug'idan xabar olgani tog'ga otlangan paytda bolalarini qaynonasiga qoldirib ketayotgan onayizor o'g'lining shumtakaligidan doim xavotir olar, iloji boricha tezroq bolalari yoniga qaytishga oshiqardi. Dasturxonlari to'kin, hayotlari tekis, bir maromda o'tardi, ammo...

(Davomi 2-sahifada.)

MULOHAZA

"KURASHADI IKKI TO'LQIN, QARAB TURAYMI!..."



Bugun Ilon Mask haqida eshitmagan kishi kam. "Kim o'zi u?" degan savolga aksar kishilar "milliarder" deb javob qiladi. Siyosat, ilm-fan, fazo va dasturlash olami yangliklaridan yaxshiroq xabardor kishilar esa uning innovatorligini, ayni paytda AQSH prezidentining eng yaqin maslahatchilaridan biri hamda Hukumat samaradorligi departamenti rahbari ekanini ham aytishi mumkin.

YOZISHGA TURTKI
BERGAN VOQEA

Ilon Mask borasida bizning diqqatimizni jalb etgan voqea "Jadid" gazetasi tomonidan

chop etilgan kitob taqdimotida sodir bo'ldi. Ma'ruzachilar qatorida so'zga chiqqan akademik Abdulla A'zam: "Milliarder Ilon Maskning sun'iy intellekt (SI) texnologiyasi va kelajak urushlari borasida general Jon Xayten bilan suhbatida kishida jiddiy xavotir uyg'otadi", dedi. Tadbirdan so'ng olim Facebook ijtimoiy tarmog'idagi sahifasida ushbu mavzuga oid qo'shimcha mulohazalarini e'lon qildi: "Maqsad – bugungi muammoga e'tibor qaratish. Sun'iy intellekt boshqaradigan tank va dronlarni ishlab chiqarish rivojlanmoqda... Biz esa innovatsiyani faqat sotib olish bilan shug'ullanaymiz. Sun'iy intellektni o'zimiz yaratish o'rniga, boshqalarnikidan foydalanyapmiz..."

(Davomi 3-sahifada.)



O'ZBEK XOTIN-QIZLARI KECHA VA BUGUN

Boshlanishi 1-sahifada.

Boshlanishi 1-sahifada.

Jadidlik milliy harakatining yirik namoyandalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Hoji Muin, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Tavallo, Cho'pon, Ubaydulla Xo'ja, Hamza, So'fizoda, Zuhridin Fathiddinzoda, Rauf Muzaffarzoda va boshqalar vaqtli matbuot sahifalarida o'zbek xotin-qizlari ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy hayotini, kundalik turmushini, ularning ilm-fanga, hunarga bo'lgan munosabatlarini yoritib beruvchi turkum maqolalar va asarlar yozganlar.

Davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan 150 yilligi bu yil keng nishonlanayotgan buyuk bobomiz, Turkiston jadidlarining otasi Mahmudxo'ja Behbudiy qizlar tarbiyasi haqida gapirib, ularni ehtiyotlab voyaga yetkazish, ilmiy qilish zarurligini ta'kidlagan bo'lsa, Abdurauf Fitrat farzandlarini yaxshi xulq egalari, ya'ni imonli, fidokor, g'ayratli bo'lib ulg'ayishlari, milliy taraqqiyotga muvofiq bo'lishlari, din va dindoshlarini halokat va xarobalikdan qutqarishlari uchun xotin-qizlar – millat onalari tarbiya va ilm olishlari, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari lozim, deb hisoblagan. Abdulla Avloniy ham xotin-qizlar jamiyatining teng huquqli a'zosi ekanligini uqitib, ularning ta'lim olishlari va jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishlariga sharoit yaratib berish kerakligini ta'kidlagan va o'zi ochgan maktabda ham qizlar o'g'il bolalar bilan tahsil olishini ta'minlagan.

Jadidlar o'z mablag'lari hisobidan tashkil etgan yangicha maktablarda qizlarni ham o'qitish boshlaganlar. Ulardan biri Abduqodir Shakuriy maktabi bo'lib, unda qizlar uchun ham maxsus sinflar tashkil etilgan. Borabura bunday maktablar Turkistonning boshqa shaharlarida ham ochila boshlagan. Toshkentdagi Eshonxo'ja Xonxo'jayev, Sobirjon Rahimovning maktablarida o'g'il bolalar qatori qizlar ham ta'lim olgan. Qo'qon shahri G'alchasoy mahallasida Muhammadjon Xoliqiy 1913-yilda qizlar maktabini tashkil qilgan.

Turkiston jadidlari ayollarning bilim olishlari va jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida o'zlariga munosib ish bilan shug'ullanishlari uchun imkoniyat yaratishni o'z o'laridan boshlaydilar. Jumladan, samarqandlik maktabchi Abduqodir Shakuriy qizlar uchun tashkil etgan yangicha maktabda xotini Roziyaxonim muallimlik qilgan bo'lsa, Abdurauf Fitrat xonadonidagi adabiy va ma'rifiy muhit singlisi Mahbuba Abdurahim qizining shoira bo'lib yetishishiga sharoit yaratib bergani ma'lum. Qo'qonlik jadid Muhammadjon Xoliqiyning singlisi Soliyaxonim Abduxoliq qizi esa akasining maktabida muallimlik qilgan.

Jadidlar tomonidan xotin-qizlarni ilmiy qilish uchun olib borilgan harakatlar tez orada o'z natijasini ko'rsata boshlaydi. Qo'qon, Toshkent, Samarqanddagi ilg'or ayollar jamiyatidagi muammolarni ochiq aytib, o'z huquq va manfaatlarini yoqlab chiqqanlar, taraqqiyparvarlik harakatini o'g'illab-quvvatlaganlar, qizlar uchun yangi usul maktablarini tashkil qilish ishlarida faol ishtirok etishgan. Dastlab "Tarjimon"ning ilovasi "Ilm nisvon" gazetasida ayollarning ilm olishlarini qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatda o'z o'rnini topishlari uchun imkoniyat berish haqida fikr mulohazalarini bayon qilgan ayollar keyinchalik milliy matbuot sahifalarida o'z orzu-maqсадlarini ifodalashgan. Millatimiz oydinlari bo'lmish Tojiyaxonim, Nojiyaxonim, Roziyaxonim, Nozimaxonim, Laylixonim, Podshoxonim, Ra'noxonim kabi jadid ayollar yangi usul maktablarida qizlarga ta'lim berish bilan birga ayollarni jamiyatning faol a'zosi sifatida aylantirish uchun keng targ'ibot olib borganlar.

1906-yilda qo'qonlik Tojiyaxonim ismli taraqqiyparvar ayol Ismoilbek G'aspralning qizi Shafiqxonimga maktab yo'llaydi. Xatda Qrim va Qozon ayollari o'ziga xos haftalik nashrga ega ekanligini ta'kidlab, Turkistonda ham ayollar matbuot nashriga asos solish va qizlar maktabi ochish bo'yicha takliflarini gazetada chop qilish hamda targ'ibot qilishini so'raydi.

1907-yilda yana bir turkistonlik ayol Nojiyaxonim Rossiya davlat dumasining musulmon a'zolariga maktab yozib, shariat qonunlarida ayollarga tijorat bilan shug'ullanish va Hajga sayohat qilish kabi huquqlar berilgani, Turkiya va Misr ayollari bu huquqlardan foydalanayotganliklarini ta'kidlab, dumadan turkistonlik ayollar uchun ham bu huquqlarni kafolatlab qo'yishlarini so'raydi. Boshqacha aytganda, o'zbek



xotin-qizlari og'ir mustamlaka sharoitiga qaramay o'z huquqlarini himoya qilish yo'lini qidirganlar.

Turkistonlik ziyoli ayollarning ko'zga ko'ringan yorqin vakillaridan biri, jadid shoirasi Nozimaxonim bo'lib, u 1870-yili Toshkentning Beshyog'och dahasida tug'ilgan (ayrim adabiyotlarda 1864-yilda tug'ilgan deyiladi). Uning otasi Mulla Said Ahmad zamonasining peshqadam kishilaridan bo'lgan. Qizining madaniyatli va ma'rifatlil bo'lib yetishishi uchun dastlab eski maktabda, so'ngra xotin-qizlar uchun ochilgan rus-tuzem maktabida o'qigan. Toshkentdagi qizlar maktabida muallimlik qilgan Nozimaxonim rus tilida erkin gaplasha olgan, Orenburg va Qozonda chiqib turgan matbuotni muntazam kuzatib borgan.

Nozimaxonim o'z davrining ilg'or qarashli ayoli bo'lib, erkparvarlik g'oyalari turg'ib botchisi edi. Bu hol uning dastlabki maqola va she'rilaridayoq aniq ko'rinadi. Uning 1904-yili "Turkiston viloyatining gazetasi"da bosilgan maqolalaridan biri "Insonga qancha erk darkor?" deb nomlangan edi. So'ng ketmaket mahalliy matbuot sahifalarida "Xotinlar huquqiga oid", "Ilm va maorif borasida bir-ikki so'z" kabi maqolalar chop etilgan. Ularda o'zbek ayolining turg'un jamiyatidagi o'rnini masalasi ko'tarib chiqqan. Bu yo'ldagi har qanday ozodlik harakatlariga xayrixohlik bildirgan. Ularni qo'llab-quvvatlagan. Maqolalar mazmuni, ruhi bilan Turkistonda ozodlik g'oyalari yoyilishi, xotin-qizlar o'rtasida demokratik intilishning kuchayishiga xizmat qilgan.

Qo'qonlik ma'rifatparvar ayollardan yana biri Laylixonim bo'lib, uning tarjimai holi bizga ma'lum emas. Biroq uning "Sadoyi Turkiston" gazetasida jadidlarini qutlab "Tabriknoma" yozgani hamda ularning islohotchilik harakatlarini qo'llab-quvvatlagani ma'lum. Ular asos solgan gazeta va jurnallarining ilmiy, ma'naviy va ma'rifiy ahamiyatini ta'kidlab, fikrini "Laylining qalami Sadoyi Turkiston jaridasiga tabrik yozdi. Sadoyi Turkiston ovozi abadiy bo'lib qolsin", deb yakunlaydi.

Toshkentlik yana bir jadid ayol "Toshkentlik muallima" imzosi ostida "Sadoyi Turkiston" sahifalarida islohotga chorlovchi maqolalari bilan ishtirok etib borgan. Gazetaning 1914-yil 11-sonida chop etilgan "Turkiston musulmalari tarafidan bir sado" maqolasida Turkiston jamiyatidagi muammolarni ko'rsatib bergan. Turkistonliklarning aniq va tabiiy fanlardan, sanoat va tijorat ilmlaridan xabarsizligi hamda ilmsizligi tufayli jaholat va nodonlik zindonida qolayotganini tanqid ostiga olgan.

Taraqqiyparvarlar iqtidorli qizlarni xorijda o'qitish uchun ham bosh qotira boshlaganlar hamda buning uddasidan chiqqanlar. 20-yuzillikning 20-yillarida Xayriniso Majidova, Maryam Sultonmurodova, Matluba Muhammadova va boshqalar Germaniya hamda Rossiya ta'lim muassasalarida o'qish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Turkiston mintoqasida sovet hukumati mustahkamlanib olgach, xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni "zamonaviylashtirish", jamiyatda erkaklar bilan teng faoliyat yuritishini ta'minlash (keyinchalik ular mehnatidan keng foydalanish) masalasiga jiddiy e'tibor qaratdi. Ushbu jarayonni tezlashtirish uchun O'rta Osiyo partiya qo'mitasi 1926-yil sentyabrda ayollarni majburiy ravishda "ozodlikka chiqarish", ya'ni paranjidan xalos etishga qaror qilgan. 1927-yil bahorida "Hujum" harakati amalga oshirilib, Turkiston xotin-qizlari "paranjini tashlaganlar".

O'zining ayyorona siyosati orqali millatning eng faol ayollarini aniqlab olgan

mustamlakachi hukumat 1930-yillardan boshlab, ularni jismonan yo'q qilishga kirishgan. Bu holat 1937-1938-yillarda avj olgan. Xorijda tahsil olib kelgan Xayriniso Majidova, Matluba Muhammadova, Maryam Sultonmurodova kabilar aksilinqilobchi va millatchi, chet el josuslari sifatida qamoqqa olingan. Ularning ko'pchiligi otib o'ldirilgan, Rossiyaning uzoq hududlariga surgun qilingan. Shuningdek, yuzlab ayollar "xalq dushmani"ning onasi, qizi, turmush o'rtog'i, singlisi bo'lganligi uchun azob-uqubatlariga giriftor qilingan. Ularning ko'pi siyosiy hayotdan bexabar, bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanib yurgan ayollar bo'lib ayrimlariga turmush o'rtoqlariga mashakdosh va yordamchi edi. 1937-yildan boshlab, hibsga olingan ayollar 1939-yilning birinchi yarmiga qadar qamoqda saqlangan. Turmush o'rtoqlarining "aksilinqilobiy millatchilik faoliyatini" NKVDdan yashirib kelganlikda, ularning "xalq dushmani" sifatidagi faoliyatiga sherik bo'lganlikda ayblanganlar. Qatol hukumatning ayollarga ham beshafqat munosabatini anglab yetgan jadidlarning katta qismi xotinlaridan "qonuniy ajrashgan" ham ularni qatag'on mashinasidan omon saqlab qololmagan.

Inson qadrini ulug'lash, har bir fuqaro, ayniqsa, xotin-qizlar imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun barcha sharoitlar yaratib berilayotgan bugungi kunda biz o'tmishdagi yutuqlarimiz qatori ajdodlarimiz boshidan o'tgan og'ir pallalarni ham esda tutishimiz lozim. Ya'ni, bu kunlarga osonlikcha yetib kelgani yo'q. Kechagina amalga oshishi gumon bo'lgan o'zgarishlar endilikda oddiylik kasb etib bormoqda.

Prezidentimiz tashabbuslari bilan deputatlikka nomzodlarining 40 foizi xotin-qizlar bo'lishining qonuniylashtirib qo'yilishi, Qonunchilik palatasi a'zolarining 38 foizi, senatorlarning 25 foizini ayollar tashkil qilayotgani, umumlashtirganda esa, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 2017-yildagi 27 foizdan bugun 34 foizga yetgani, shuningdek, respublikadagi 5 ta tumanni ayollar boshqarayotgani, ularning siyosiy hayotimizdagi o'rnini qanchalar yuksalganini ko'rsatadi, albatta.

Davlatimiz rahbarining ilm-fanimizga chin ma'noda qayta jon bag'ishlaganlari natijasida, sohaga kirib kelayotgan, qaytayotganlar orasida ham ayollarning salmog'i sezilarli darajada oshib, bugun 5000 dan ortiq olimlar ilmiy faoliyat bilan shug'ullanmoqda. Magistraturaga o'qishga qabul qilingan xotin-qizlarning to'liq davlat hisobidan o'qitilishi kechagina tasavvurga sig'mas edi. Hozirda oliygo'harlarda ta'lim olayotgan 1 million 300 mingga yaqin talabanning yarmidan ko'pi, aniqrog'i 653 mingdan ziyodini qizlar tashkil etmoqda. Magistraturada o'qiyotgan qizlar salkam 14 ming nafar bo'lib, bu jami magistrantlarning yaqrib 60 foizini tashkil qiladi. 2024-yili ehtiyojmand oilalarning 1914 nafar vakillarini oliygo'harlarga qo'shimcha davlat granti asosida o'qishga qabul qilingan. 181 ming 500 nafardan ortiq qizga imtiyozli ta'lim kreditlari ajratilgan.

Ishbilarmon ayollarning xizmatlari milliy yetakchimiz tomonidan alohida rag'batlantirilayotgani ham tahsinga loyiq. So'nggi 5 yil ichida O'zbekistonda ishilarmon ayollar safi ikki barobar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 205 mingdan oshdi. Birgina 2023-yilda 279 mingdan ziyod tadbirkorlik loyihalariga 13 trillion so'mdan ortiq kredit, qariyb 57 ming xotin-qizga salkam 300 milliard so'm subsidiya ajratilgan.

O'tmishimiz va bugunimizda o'zbek xotin-qizlarining davlat va jamiyat hayotining turli sohalarida tutgan mavqeylari, erishgan yutuqlarini tahlil etarkanmiz, jadidlik milliy harakatining yirik namoyandasi Hoji Muinning "...erkaklar bilan bir qatorda olima, shoira, muharrira, xatiba, adiba, fakiha ayollarning yetishib chiqishi ularga ta'lim olishi uchun yaratilgan imkoniyatlar va rag'batdan edi", degan so'zlari esga tushadi.

Milliy yetakchimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlanib, yildan-yilga o'zining zalvorli natijalarini berayotgan Uchinchi Uyg'onish davrimiz poydevorini mustahkamlashda ko'p jihatdan xotin-qizlarimizning beqiyos o'rnini borligidan behad g'ururlanamiz.

Dilnoza JAMOLOVA,
Tarix instituti direktorining
ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari,
tarix fanlari doktori

O'shanda Hoshimjon uch yoshda edi. Hovlida o'ynab yurib, katak burchagida yotgan kurk tovuqqa ko'zi tushdi. Ona tovuq qanotlari ostiga berkinib chiyillayotgan jo'jalarni ko'rmoqchi bo'ldi. Devorga tirab qo'yilgan traktor g'ildiragiga suyangancha, qo'lga cho'p tutib, hurpayib turgan tovuqni turkilay boshladi. Keyin ona tovuq hamlasidan qochaman, deb beixtiyor omonat turgan g'ildirakka osildi-yu, qanday qilib oyoqlari temir qasqon ostida qolganini sezmay qoldi. Avvaliga oyoqchalarini tortib olishga rosa urindi, butun vujudini og'riq qamrab, chorasiz qolganidagina yordam so'rab dodlay boshladi...

Uydagilari uni behush holda topishdi. Kun kech bo'lib qolgan, shahar shifoxonasi ancha olisda. Chora qidirib, yaqin orada yashaydigan tabibga olib borishdi. Bolaning oyoq suyaklari sinib ketgani ayon edi. Taxtakachlar orasiga olib, mahkam tang'ib bog'lagandan keyin oyoqlar og'rig'i tinganday bo'ldi.

Aytilgan fursatda jarohatdagi bog'lamlar yechildi. Onayizor o'g'lining oyoqchalariga qarab go'yo yuragi to'xtab qolgandek bo'ldi. Otasi tog'dan qaytgach, Hoshimjonni shahar markazidagi tajribali shifokorlarga ko'rsatib, davolatisdi – natija bo'lmadi. Bolakay ikki oyog'idan ajralib, nogiron bo'lib qoldi...

Ammo bolajon taqdirga tan berib, to'shakka mixlanib yotaveradiganlardan emas edi. Shu holda ham g'ayrati uni o'z holiga qo'ymadi. Uzoq va mashaqqatli mashqlardan keyin qo'llariga tayanib harakatlanadigan bo'ldi.

YER KO'KARSA – EL KO'KARADI

Hoshimjonning hayvonot olamiga mehri bo'lakcha edi. Dadasi minib yurgan ko'k qashqa ot uning eng yaqin do'stiga aylangan, mol-qo'ylari, bo'ribosar iti ham bor edi. U "Oq bo'rilar" filmi berilib tomosha qilar, o'zini kino olamiga kirib qolgandek baxtiyor his etardi. Shunday kunlarning birida televizor o'chib qoldi. Qo'shning uyiga kirib kino ko'rishni o'ziga ep ko'rmay, asbob-uskunalar solingan qutini qidira boshladi. Hamma ishga qiziqib, amalda bajarishga bel bog'laydigan o'g'lini ko'ngilsizliklardan saqlash uchun ehtiyot choralarini ko'rib yuradigan onasi qutini yashirib ketgan edi. O'ylay-o'ylay yo'lini topdi. Qo'lga tushgan kattakon mixni ikki toshning orasiga olib, zarb bilan urib yapaloq holatga keltirdi-da, moslama yordamida televizor qutisini ochdi. Shoshilmay o'rgandi. Qorayib qolgan bitta chiroqchasi o'rniga ekrani kuyib qolgan eski televizor chirog'ini olib qo'ydiki. Sozlagach, televizor ishlayotganini ko'rib, sevinchdan hayqirib yubordi. O'sha kuni birinchi marta o'zidan ko'ngli to'ldi. Ertasiga necha yildan beri ishlamay yotgan kir uyuvish mashinasini ta'mirlab, onasini xursand qildi. Sekin-asta televizor, magnitofon kabi ko'plab radiotexnika vositalarini sozlashni o'rgandi. Hoshimjon o'n olti yoshga kirganida ishi tushib uni yo'qlab keladiganlar ko'paydi. Do'stlari, hamsuhbatlari safi tobora ortib boraverdi.

Shunday kunlarning birida mahallaga yumush bilan kelgan Qobiljon Sultonov degan nomdor teleusta bilan tanishib qoldi. Unga shogird tushib, tuman markazida joylashgan "Zangori ekran" radiotexnika ustaxonasiga qatnay boshladi. Uylaridan avtobus bekatiqacha ancha masofa. Bir-ikki oy borib amaliyot o'tashi kerakligini fahmlagach, hech kimga maloli kelmaydigan yo'lini izladi va imkonini topanday bo'ldi. Uch g'ildirakli velosiped sotib olib, unga baquvvat g'ildirakchalar, qulay o'tirishi uchun egar o'rnatdi. Qo'l bilan haydaladigan velosipedda endi bemaol avtobus bekatiqacha borib, uyiga qaytadigan bo'ldi. Avvaliga odamlarning hayratomuz nigohlari, uni ko'rganda bir-biriga pichirlab gap qotishdani ko'ngli g'ashlandi, o'ng'aysizlandi. Keyin-keyin hammasiga ko'nikdi. Ularga parvo qilmay hunarni puxta o'zlashtirish payida bo'ldi.

Bir kuni nogironlar uchun maxsus bilim yurti borligini eshitib, ota-onasi bilan maslahatlashib, rozilik olib, yo'lga tushdi. O'quv dargohiga kirib borganida o'ziday yigit-qizlarni ko'rib, shu yerda o'qishni niyat qildi. O'quv dargohi rahbari oldiga kirdi.

– O'g'lim, iloji bo'lsa, sizni jon deb imtihonsiz qabul qilardik. Dars xonalarimiz ikkinchi-uchinchi qavatlarda joylashgan. Zinalardan chiqib-tushishingiz muammo bo'ladi. Qiynalib ketasiz. Bizdan saboq olsangiz



ham, hozirgidek malakaga ega bo'lardingiz-da. Bizda o'rganishingiz kerak bo'lgan kasb-hunarni allaqachon egallab olibsiz. Iltimos, mendan xafa bo'lmang...

Hoshimjon uyga qaytgach, onasiga ko'zidagi hasratini ko'rsatmaslikka harakat qildi. Bor alaminu mehnatdan oldi. Mahalladagi bog'bon amakisi – Mamasoli akadan daraxt payvandlash sirlarini o'rganishga tushdi. Bozordan, o'zlarining bog'idan keltirilgan meva danaklarini katta hovliga onasi, do'stlari yordamida ekib, ko'chat undirdi. Shaftoli va o'rikning noyob turlari novdalaridan kesib olib, ona kurtaklarni yangi ko'chatlarga payvandladi. Bir-ikki yilda usta bog'bonlarday mevali ko'chat o'stirishning yangicha usullarini

topib, undan daromad ola boshladi. Ota-onasining chin dastyoriga aylandi-qoldi.

O'sha kezlarda men tuman ijroiya qo'mitasida "Onalik va bolalikni muhofaza qilish" bo'limida ishlardim. Tumandagi "Oq oltin" gazetasini muxbirlaridan biri menga sim qoqib, "Chilon" qishlog'ida bir nogironligi bo'lgan yigitcha borligini aytib, manzilini berdi. Uni qidirib topdim. Zebixon aya peshvoz chiqib, "Mana, mening bolam" deya Hoshimjonga ishora qildi. Yigitcha ko'ziga yosh olib bo'moli chetini tishlab turgan onasiga bir qarab qo'ydiki-da, chaqqonlik bilan yonimga keldi:

– Opa, meni birinchi ko'rgan odamning hayratlanishiga ko'nikib qolganman. Bilaman, buning qo'lidan nima kelardi, deb o'ylayapsiz. Men ko'p ishni uddalayman. Tomorqadagi mevali ko'chatlarning hammasini o'zim payvand qilganman. Anavi gullarni o'stirganman. Qo'ra-qo'ra qo'ylarni boqib, semirtirish uchun qoplardagi makkajo'xori donini mardagidan ajratgan ham men...

Katta hovli tomonrasida bir qarich bo'sh yerning o'zi yo'q. Turli meva ko'chatlariga birdek shakl berilgan. Qizil, oq rangdagi atirgullar tovlanib turibdi. Suhbatimiz davomida u yana shunday dedi:

– Kimning hovlisida chiroyli o'chilgan gul ko'rsam, kuza borib novdasidan qalamcha olib ko'kartirishni odat qilganman. Qarang, xilma-xilligini. Yer eng yaqin og'aynim, do'stinga aylangan...

Zebixon ayaning-da orzulari ushaldi. Hovli to'y ko'rdi. Kelini Hayotxon ularning hayotiga yorug'lik olib kirdi. Nabirasi Hosilabonuni to'yib-to'yib bag'riga bosdi. Alla aytib xumordan chiqdi.

Hoshimjon bilan yo'qlashib turamiz. Prezidentimiz 2025-yilga "Atrof-muhitni asrash va yashil" iqtisodiyot yili" deya nom bergan kuni jo'shib qo'ng'iroq qilib qoldi: – Opa, bizning yilimiz keldi. Onam rahmatining otasi Mahkam bobom bog'bon o'tgan ekan. Undan meros bo'lib qolgan katta bog'ni otam ikkimiz gurkiratdik. Yoshlarga ibrat bo'lsin deb, yaxshidan bog' qoladi degan hikmatni uqitadigan qilib, "Mahkam bobo bog'i" deb nom berdik. Onam bog'bonning qizida, farzand ko'rganimda ismini serhosil, sermeva bo'lsin, deb Hosilabonun atagan. Farzandlarimiz ham nima sababdan ona yerga, yashillikka, bog'-rog'larga bu qadar ahamiyat berilayotganini tushunib, tabiatni asrab-avaylaydigan avlod bo'lsin! Kesishdan ko'ra, ekishni ko'zlaydigan olijanob odamlar soni ortaversin! Xalqimizda bog'bon oqil bo'lsa, yer ko'karadi, yer ko'karsa el ko'karadi, degan naql bor. Bu yil yurtimiz yanada yashnaydigan bo'ldi, opa, – dedi Hoshimjon quvonib.

Munavvara USMONOVA

“BOBURNOMA” — SEZAR DIYORIDA

Boshlanishi 1-sahifada.

XVIII asr boshlaridayoq "Boburnoma" Yevropa tillariga tarjima qilina boshlagan. Ushbu nashr o'zbek va italyan xalqlari o'rtasidagi adabiy va madaniy-gumanitar hamkorlik aloqalarining samarali va yorqin namunasi sifatida dunyoga keldi. Albatta, biz uchun Sharq, xususan, O'zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk shaxslar hayoti va faoliyatini o'rganish juda muhim.

– Kitob Italiya ilmiy va madaniy jamoatchiligining buyuk shoir va qomusiy olimning bebaho merosi, o'zbek davlatchiligining uch ming yillik tarixi bilan tanishuvda o'ziga xos ko'prik vazifasini o'taydi. Qolaversa, xalqimizning ma'naviy olami, Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan joiyib o'zgarishlar mohiyatini anglashga yordam beradi, – dedi noshir Sandro

Teti. – Bu asarning nashr qilinishida katta hissa qo'shgan barcha fidoyi insonlarga minnatdorlik bildiraman.

Shuningdek, "Boburnoma"ning italyan tilidagi nashri taqdimotiga bag'ishlangan tadbirlar Rim shahrida ham bo'lib o'tdi. Bu yerdagi Italiya Sharqshunoslik institutida tashkil qilingan taqdimotda Bobur Mirzo hayoti va faoliyatini hamda "Boburnoma" asarining italyancha nashriga bag'ishlangan hujjatli film namoyish qilindi. Tadbir qatnashchilariga O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan chop etilgan kitob-albomlar hamda "Boburnoma" asari taqdim etildi.

Rustam JABBOROV,
O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi
markazi ilmiy kotibi



“KURASHADI IKKI TO‘LQIN, QARAB TURAYMI!..”

Boshlanishi 1-sahifada.

Chindan ham aksariyat ekspertlar kelajakda SI texnologiyasi harbiy mojaralarda hal qiluvchi rol o‘ynab, inson uchun muqarrar xavfni keltirib chiqarishi mumkinligini ta’kidlab, bu yo‘nalishga jiddiy e’tibor qaratish va uni boshqarishda ustunlikka ega bo‘lish shart, degan fikrni ilgari surishmoqda. Ilon Mask esa ana shunday qarashdagi kimsalar orasida o‘ta qat’iy fikrda ekani bilan alohida ajralib turadi. Buning ustiga, u mavjud texnologik imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, SI texnologiyasi yo‘nalishida mutlaq yetakchi bo‘lishga ochiq-oydin intilayotganlardan biri. Shu o‘rinda SIT va Ilon Mask haqida batafsilroq to‘xtalishga harakat qilamiz.

G‘AROYIB BOLA

Milliarder haqida ochiq manbalarda shunday ma’lumot mavjud: Ilon Mask 1971-yili Janubiy Afrika Respublikasining ma’muriy poytaxti bo‘lmish Pretoriya shahrida tug‘ilgan. Otasi Erol Mask – muhandis, tadbirkor, onasi Mey Mask esa model va dietolog bo‘lgan.

Bolalik davri Janubiy Afrikada o‘tgan Ilon Mask o‘ziga xos xususiyatlari bilan tengdoshlaridan ajralib turgan. Xususan, u kitob, kompyuter va ilm-fanga qattiq qiziqqani bois 4 yoshidayoq turli mavzulardagi ensiklopediyalarning ancha-munchasini o‘qishga ulgurgan ekan.

“Yo‘lboshlovchiga qo‘llanma: Galaktika bo‘ylab” kitobi uning eng yaxshi ko‘rgan asarlaridan biri bo‘lgan. Ilm-fanga nisbatan jiddiy munosabat uning hayotida o‘z mevasini juda erta bergan. To‘qqiz yoshida kompyuter va dasturlash bilan tanishgan Ilon o‘n ikki yoshida “Blaster” nomli kompyuter o‘yinini yaratib, 500 dollarga sotishga muvaffaq bo‘ladi. Bu uning dasturlash texnologiyalarini ishlab chiqish va tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqishini yanada rag‘batlantirgan.

Ilon Mask ota-onasi ajrashganidan keyin bir muddat otasi bilan birga yashagan. Keyinchalik otasi bilan munosabatlari juda taranglashib ketgani sababli AQShga ko‘chib ketishga qaror qiladi. 17 yoshli Ilonga onasining Kanada fuqarosi ekanini qo‘l kelib, shu mamlakatga ko‘chib o‘tadi.

Kanadaning Monreal shahrida yashash bilan birga, turli xil ishlarda ishlab, o‘qishga mablag‘ to‘playdi. Ilon 1992-yili AQShning Pensilvaniya shahriga ko‘chib o‘tib, 1995-yilgacha bu shaharda “Kollej of Arts & Sayens”da fizika bo‘yicha, Uorton maktabida esa biznes va iqtisodiyot bo‘yicha tahsil olib, bakalavr darajasini beruvchi ikkita diplomni qo‘lga kiritadi. 1995-yili Stanford universitetida tahsilni davom ettirish uchun Kaliforniyaga ko‘chib o‘tgan Ilon o‘qishni tashlab, internet-texnologiyalari bilan shug‘ullanishga qaror qiladi.

Aslida bunday qarorga kelish uchun kishida aniq reja bo‘lishi lozim. Aftidan qahramonimizda bunday rejalar bisyor bo‘lgan. Shu bois oradan bir yil o‘tmay, u o‘zining Zip2 startapini ishga tushiradi. Buni amalga oshirishda ukasi Kimbal Mask, otasi Erol Mask va yana ko‘plab sarmoyadorlar uni qo‘llab-quvvatlagan. Zip2 xaritalar va yo‘nalishlarni ko‘rsatib berish xizmatiga ixtisoslashgan bo‘lib, asosan gazeta kompaniyalari uchun mo‘ljallangan. Qolaversa, Zip2 mahalliy biznes subyektlari, xizmatlar va tovarlar haqidagi ma’lumotlarni ham e’lon qilib borgan.

1999-yili “Compac” kompaniyasi Zip2 loyihasini 307 million dollarga xarid qiladi. Bu savdo bitimi Maskka taxminan 22 million dollar daromad keltirgan. Qisqa vaqt ichida qo‘lga kiritilgan bu sarmoya bugungi milliarderning keyinchalik “PayPal”ga aylangan x.com kompaniyasini tashkil etishida asqatgan.

1999-yili Mask x.com onlayn bankini tashkil etadi. Bu loyiha 2000-yili “PayPal”ga aylanib, elektron to‘lov tizimi sifatida katta muvaffaqiyat qozonadi. Bunday loyihalar o‘z yaratuvchilariga shubhasiz, ulkan imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu safar ham shunday bo‘ldi. 2002-yili eBay kompaniyasi “PayPal”ni 1,5 milliard dollarga sotib oldi. Shundan so‘ng Ilon Mask hech ikkilanmay kosmosga parvozlarni arzonlashtirish va odamlarni Marsga jo‘natish orzusini ro‘yobga chiqarish borasida ish boshladi.

U an’anaviy fazoviy raketalar ishlab chiqaruvchi kompaniyalardan farqli ravishda, qayta ishlatiladigan raketalar yaratish g‘oyasini ulkan qat’iyat bilan ilgari surgani sababli 2002-yili uning “SpaceX” kompaniyasi tashkil topadi.

“Muvaffaqiyat uchun istakning o‘zi yetarli emas, harakat qilish lozim”, degan donolar chindan haq bo‘lgan. Agar Ilon ko‘p marta foydalanishga mo‘ljallangan raketalarining muvaffaqiyatli parvozi uchun qariyb olti yil vaqt talab etilishini bilganida o‘z niyatidan qaytgan bo‘larmidi? Milliarder bu savolga hamisha “yo‘q”, deb javob qilgan. Zotan, har bir muvaffaqiyatsiz uchirilgan raketa sarflangan millionlab dollar mablag‘lar ham uni cho‘chitmagani. 2008-yili Falcon 1 raketasi muvaffaqiyatli uchirilgan. Shundan keyin, 2012-yili Ilon Mask kompaniyasiga tegishli Dragon kapsulasi Xalqaro kosmik stansiyaga yetib bordi. 2020-yili SpaceX birinchi xususiy kompaniya sifatida Crew Dragon fazoviy kemasida odam uchirgan. 2023-yili Marsga uchish uchun muhim qadam deb hisoblangan Starship raketa tizimi sinovdan o‘tkazilgan. Negaki, ta’kidlanganidek Ilonning eng katta maqsadlaridan biri – insonlarni Marsga ko‘chirishdir. “Men, albatta, Marsda o‘lishni istayman. Ammo bu kosmik kemaning Mars yuzasi bilan to‘qnashuvi tufayli sodir bo‘lmisligi kerak” degan edi u.

Albatta, tadbirkor sarmoyasining yanada ko‘payishida davlatning ham muhim roli bor. Ilonning deyarli barcha fazoviy parvozlari, ma’lum maqsadlarga mo‘ljallangan sun’iy yo‘ldoshlarni orbitaga olib chiqishga eng katta buyurtmalar AQShdagi NASA agentligi tomonidan berilgan.

Natijada milliarderga yaxshi daromad keltirgan bu yo‘nalish 2004-yili Tesla kompaniyasiga sarmoya kiritilishiga hamda Ilonning bosh ijrochi direktoriga aylanishiga sabab bo‘lgan. Elektromobillar mavzusida deyarli inqilob yasagan Tesla kompaniyasi ko‘p o‘tmay o‘z elektromobillarining nafaqat ekologik jihatdan samarali, balki texnologik jihatdan mukammalligini ham isbotlay oldi.

Shu o‘rinda bir narsani alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Ilon Mask o‘tgan asrning emas, bugunning milliarderi. Hatto asr boshida uni aksariyat sarmoyadorlar tanimas edi. Hozirga kelib taxminiy hisob-kitoblarga ko‘ra, uning boyligi 384 milliarddan 400 milliard dollargacha bo‘lgan oraliqda deb baholanadi.

KELAJAK URUSHLARI VA SUN’IY INTELEKT

Ilon Mask kelajakdagi urushlar haqida bir necha bor o‘z qarashlarini bayon qilgan. Milliarderning fikricha, SI texnologiyalari kelajakda hal qiluvchi rol o‘ynaydi hamda insoniyat bundan keyingi davrlarda u orqali boshqariladigan urushlar, kosmik janglar va kiberurushga guvoh bo‘ladi. SI texnologiyalari tomonidan boshqariladigan qurollar esa kelajakda eng xavfli tahdidlardan biriga aylanadi.

2018-yili sun’iy intellektni “abadiy diktator” deb atagan Ilon agar bir davlat yoki kompaniya SI nazoratini to‘liq egallab olsa, bu butun dunyo uchun totalitar tizim yaratilishiga olib kelishini aytgan.

Ilonning fazoviy urushlar borasidagi qarashlari ham o‘z zamondoshlaridan ancha ilgari kelgan tasavvurlariga tayanadi. Unga ko‘ra, kelajakda kosmosdagi resurslar uchun raqobatga kirishadigan davlatlar yoki xususiy korporatsiyalar o‘rtasida kosmik urushlar sodir bo‘ladi. Bu esa kosmosda qurollanish davri boshlanishiga, sun’iy yo‘ldoshlarga qarshi qurollar ishlab chiqarishda raqobatning kuchayishiga sabab bo‘lib, “kosmik armiyalar”ning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Bu borada vaqtni boy bermaslik uchun hozirdan harakat boshlash lozim.

Kelajakda yer yuzida davlatlar va kompaniyalar o‘rtasidagi ziddiyatlar an’anaviy urushlar shaklida emas, balki kibermakonda kechishini ishonch bilan ta’kidlovchi Ilon Mask fikricha, xakerlik hujumlari davlatlar iqtisodiyotiga jiddiy zarar yetkazishi, ma’lumotlar sun’iy intellekt vositasida nazorat qilinishi, kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyalari global moliyaviy tizimdagi ustunlik uchun kurashda muhim rol o‘ynashi aniq.



Ilon Maskning bu qarashlarini keskin tanqid qiluvchilar ham yo‘q emas. Bir qancha ekspertlar buni haddan tashqari dramatik va realikdan yiroq deb hisoblashadi. Ulardan biri – Facebook asoschisi Mark Suckerberg. U Maskning bu qarashlarini “befoyda va g‘ayritabiiy qo‘rquv” deb atagan.

Ammo 2023-yili AQSh Harbiy havo kuchlarining (USAF) sun’iy intellekt boshqaruvidagi dronlar bo‘yicha o‘tkazgan sinovi Ilon Maskning farazlari borasida o‘ylab ko‘rishga undaydi. O‘shanda ommaviy axborot vositalariga SI texnologiyasi asosida ishlovchi dron o‘z missiyasini bajarishda operatorining buyrug‘ini inkor qilib, unga hujum qilgan, degan ma’lumotlar matbuotga sizib chiqqan. Bu haqda AQSh Harbiy havo kuchlari polkovnigi, Tucker “Cinco” Hamilton nomli sun’iy intellekt bo‘yicha mutaxassis Hemilton Londondagi SI konferensiyasida gapirgan.

Polkovnikka ko‘ra, SI bilan ishlovchi dron o‘z missiyasini bajarish chog‘ida unga belgilangan nishonni olmaslik buyrug‘ini bergan o‘z operatorini “to‘siq” sifatida qabul qilib, uni o‘chirishga harakat qilgan. Shundan so‘ng operatorga hujum qilish taqiqlangani haqida dronga kod kiritilgan. SI esa bunga “muammo” deb qaragan va operatorning aloqa stansiyasini vayron qilishga uringan.

Google DeepMind va OpenSI mutaxassislari SI nazoratdan chiqishi haqida hech qanday aniq dalil yo‘qligini ta’kidlashgan. Bu sohada boshqa ekspertlar ham Ilon Maskni texnologiyani noto‘g‘ri tushunayotganlikda ayblashadi.

ILMDAN SARMOYA YARATISH MUMKIN!

Ha, aynan shunday. Buni Ilon Mask ham, boshqalar ham allaqachon bir necha bor isbotlab bo‘ldi. Va bunday shaxslar bugunga kelib alohida fenomenaga aylandi. Agar e’tibor qilinsa, milliarder daromad manbalarining deyarli barchasi ilm-hunar rivoji bilan bog‘liq. Demak, novatorga dunyoning birinchi raqamli milliarderiga aylinish uchun jami imkonni faqat ilm bergan. Ayni vaqtda Ilon Mask faqat elektromobillar yoki kosmos sohasida emas, balki transport va infratuzilma yo‘nalishida ham innovatsion g‘oyalari ustida ishlayotgani ma’lum. Uning The Boring Company kompaniyasi shaharlar ostida tunnel qazish va tirbandlik muammosini hal qilishni maqsad qilgan. Shuningdek, Hyperloop va Mars Colony (Mars shaharlari) loyihasi dunyoning transport tizimi va uning kelajagini o‘zgartirishni ko‘zlaydi.

Hozirgacha uning kompaniyalarida bir necha loyihalar ishlanmoqda: Nevada shtatining Las-Vegas shahrida Vegas Loop innovatsion tunneli, Los-Anjelesda Test Tunnel, Mayami va Ostin tunneli, 1000 km soat tezlikdan 1220 km soat tezlikkacha harakatlanishi imkonini beruvchi Hyperloop magnit levitatsiyali poyezdi tunneli, 2050-yilgacha Marsda mustaqil inson sivilizatsiyasini yaratishni maqsad qilgan Mars koloniyasi loyihasi shular jumlasidan. Mutaxassislar mazkur g‘oyalarni ro‘yobga chiqarish o‘zgarishni ko‘zlaydi.

Ilon Maskning kompaniyalari AQSh mudofaa va xavfsizlik sohaslarida kundankunda muhimroq mavqega erishyapti. “SpaceX” AQSh mudofaa va NASA bilan yirik shartnomalarga ega. Pentagon SpaceXdan shaxsiy sun’iy yo‘ldoshlar va raketalarni uchirish uchun foydalanadi.

Shu o‘rinda uning AQSh siyosatida tutgan rolining ijobiy va salbiy jihatlarini sanab o‘tish lozim bo‘lsa, quyidagilarga to‘xtalamiz.

Ijobiy jihatlar: uning loyihalari AQShni global texnologiya yetakchisiga aylantirmoqda. “SpaceX” Amerika kosmik dasturlarini qayta tikladi. Mask Twitter’ni sotib olib, media senzurasiga qarshi chiqdi. Salbiy tomonlari: Maskning ayrim bayonotlari siyosiy munozaralarni kuchay-

tirib, hukumat va jamoatchilik o‘rtasida tortishuvlarga sabab bo‘lmoqda. Starlink sun’iy yo‘ldoshlar tizimining harbiy maqsadlarda ishlatilishi hukumat bilan kelishmovchiliklarga olib kelgan. Twitterda so‘z erkinligini nazorat qilish susaygan, SI rivoji borasida bir-biriga zid qarashlarini ilgari suradi. So‘nggi paytlarda esa, u mazkur omilni harbiy sohaga integratsiya qilish hamda SI bilan ishlaydigan qurollar yaratishdan daromad olishni ko‘zlayotgani kishilarning e’tiborini tortmoqda.

Bunday cheksiz imkoniyatlar bilan nimalarni orzu qilmaslik mumkin?! Hatto hokimiyatni boshqarish, uni egallab olish yoki butun boshli xalqlarni o‘ziga og‘dirish imkoni bor.

ILON MASK AQSH PREZIDENTI BO‘LISHI MUMKINMI?

AQSh Konstitutsiyasiga ko‘ra, prezidentlikka nomzodini surishni istagan kishi shu mamlakatda tug‘ilgan bo‘lishi, yoshi 35 yoshdan kam bo‘lmisligi, Prezidentlikka o‘z nomzodini qo‘yguniga qadar AQSh hududida 14 yil yashagan bo‘lishi shart. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Ilon Mask Janubiy Afrika Respublikasida tug‘ilgan, AQSh fuqaroligini 2002-yili olgan. Demak, u “natural” AQSh fuqarosi emas. Bu esa uning prezident bo‘lish imkoniyatini yo‘qqa chiqaradi.

Bu dunyoda nimalar bo‘lmaydi, balki konstitutsiya o‘zgarar, deydiganlarga kelsak, AQSh Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish juda qiyin masala. Kongress va 50 shtatning kamida uchdan ikki qismi buni ma’qullashi kerak. Ilgari Avstriyada tug‘ilgan Arnold Shvarsenegger yoki Germaniyada tug‘ilgan Genri Kessinjer kabi mashhur shaxslar uchun ham shunday o‘zgarish taklif qilingan, lekin qabul qilinmagan.

QISSADAN HISSA

Maqola boshida akademik olimimizning ziyolilarimizga murojaati ushbu mavzu ta’hliliga turki bo‘lganini aytib o‘tdik. Ta’bir joiz bo‘lsa, men bu murojaatni millat bolalariga iltijo o‘laroq qabul qilish lozim, degan bo‘lardim.

Olimlar dunyo haqida so‘zlaganda uni qutblarga bo‘lgan holda tahlil qiladi. Ammo bugun sotsialistik va kapitalistik qutblar haqidagi qarashlar ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgandek. Mafkura, milliy g‘oya haqidagi chaqiriqlar ham kimlar uchundir puch gapday tuyuladi. Biroq qutblar mutlaqo yo‘qolib ketgani yo‘q.

Nazarimda, dunyoda hanzu ikki qutb mavjud: ilm-hunar taraqqiy etgan ma’rifat qutbi hamda kishilarni tubanlikka tortuvchi jaholat qutbi. Nadomatlar bo‘lsinki, nafaqat alohida kishilar, balki butun boshli xalqlar va davlatlar ham bu qutblar atrofida jamlangan.

Ma’rifat qutbidagilar insoniyatga yaxshilik ulashish, barcha tahdidlardan, hatto samoviy xatarlardan o‘zini asrash, axloqda ham, ibodatda ham, imlda va itoatda ham belgilangan me’yorlardan chiqmaslik payidan bo‘lib, kun sayin taraqqiy etayotgan bo‘lsa, jaholat qutbidagilar bandalardan ilohlar yaratib olib, ularga sig‘inish bilan ovora.

Inson aqli bilan farishtalardan ko‘ra balandroq mavqega ega bo‘lsa, nafs bilan hayvondan ko‘ra tubanroq pog‘onaga tushar ekan. Ma’rifat va jaholat qutblari oldidagi tanlov ham har bir kishining o‘ziga havola. Biroq ilmga intilish xalqimiz irsiyatida bor. Yo‘qsa, bu yurtda o‘n asr nari-berisda ikki bor Renessans hodisasi sodir bo‘lmis edi.

Bu o‘ylar jaded bobolarni ham iztirobga solganiga ishonchimiz komil. Shuning uchun ular millat bolalarini ilm olishga, hunar o‘rganishga da’vat qilgan. Aynan o‘sha da’vat asrlar osha aks sado beraveradi. Bunday sadolarni esa fidoyi olimlar, o‘z millati va xalqi taraqqiyatini istagan ziyolilar og‘zidan eshitaveramiz. Faqat unga quloq salsak va xulosa chiqara bilsak, bas.

Ilon Mask tanlagan qutb haqida mulohaza yuritishni o‘zingizga havola etamiz.

Abdulhamid MUXTOROV

JAHON AYVONIDA

**5 MLN. DOLLARLIK
“OLTIN KARTA”**



AQSh prezidenti Donald Tramp xorijliklarga 5 mln. dollar to‘lov evaziga AQShda yashash va ishlash huquqini beruvchi hamda fuqarolikka yo‘l ochuvchi “oltin karta” sotishni taklif qildi.

Shuningdek, u kartalarni rossiyalik oligarxlar olishi mumkinligi haqida savolga “ular juda yaxshi odamlar” deb javob qaytardi.

TABIYIY RESURSLAR BO‘YICHA BITIM



Ukraina AQSh bilan tabiiy resurslar bo‘yicha bitim shartlarini kelishib oldi.

Vashington eng qat’iy talablardan, xususan, Ukraina foydali qazilmalaridan 500 mlrd. dollar daromad olish da’vosidan voz kechdi. Donald Tramp va Vladimir Zelenskyy hujjatni shu hafta imzolashi kutilmoqda.

ILON MASKKA QARSHI PETITSIYA



Kanadada 5 kun ichida 230 mingdan ortiq aholi milliarder Ilon Maskka qarshi petitsiyani imzoladi.

Unda Maskdan Kanada fuqaroligini olib qo‘yish nazarda tutilgan. Bu Maskning Kanadani qo‘shib olish haqida bir necha bor tahdid qilgan Tramp bilan do‘stona aloqasi tufayli ro‘y berdi.

MARKAZIY OSIYO BO‘YICHA YANGI MAXSUS VAKIL



1-martdan boshlab Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyodagi maxsus vakili lavozimini latviyalik diplomat Eduards Stiprays egallaydi.

U 2016–2020-yillarda Yevropa Ittifoqining O‘zbekistondagi delegatsiyasiga rahbarlik qilgan.

MDH POYTAXTLARIDA UY-JOY NARXI QANCHA??



Sputnik Belarus infografikasidan ma’lum bo‘lishicha, eng qimmat uy-joy Moskvada bo‘lib, u yerda ikki xonali kvartira narxi o‘rtacha hisobda 215–270 ming AQSh dollari atrofida baholangan.

Toshkentda ikki xonali uy narxi o‘rtacha 45–50 ming, Ostona va Bishkekda esa xonadonlarni 60–65 ming AQSh dollariga sotib olish mumkin.

MDH poytaxtlari orasida eng arzon uy-joy Dushanbeda bo‘lib, u yerda ikki xonali kvartiraning o‘rtacha narxi 35 ming AQSh dollari turadi.



Boshlanishi 1-sahifada.

Toshkentshahridagi sobiq "Panorama" binosini hammamiz yaxshi bilamiz. Ayni paytda bu tarixiy bino Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kino san'ati saroyiga aylantirilgan. Saroyning 1 ming 800, 320, 70 va 50 kishilik namoyish zalari, 2 ta auditoriya xonasi va majlislar zali tubdan ta'mirlanib, bu yerda "O'zbekiston kino san'ati muzeyi" tashkil etildi. Muhtasham majmua yaqin davrda Toshkent xalqaro kinofestivali, "Oltin Humo" milliy filmlarni taqdirlash marosimlariga, o'nlab badiiy va hujjatli film premyeralari hamda namoyishlariga, madaniy-ma'rifiy tadbirlarga mezbolik qildi.

2025-yilda davlat buyurtmasi asosida suratga olinadigan filmlar uchun 110 milliard, "Tirik tarix" dasturi doirasida 70 milliard, milliy teleseriallarni qo'llab-quvvatlash uchun subsidiya shaklida 12 milliard – jami 192 milliard so'm mablag' ajratilayotganining o'ziyoq, o'ylaymizki, mamlakatimizda soha rivojiga qaratilayotgan yuksak e'tibor darajasini ko'rsatadi.

Kinoyilohalarga xorijiy hamda mahalliy hamkorlar tomonidan investitsiya ajratilishi an'anaga aylanib borayotgani, xususan, 2024-yilda 10 ta badiiy, 13 ta hujjatli film mahalliy hamda xorijiy investorlar hamkorligida yaratilgani, ijodiy tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "do'stlar klublari" tashkil etilgani ham muhim ahamiyatga ega.

Biror xalqni uyg'otmoqchi bo'lsangiz, unga tarixini o'rgating.
Avreliy AVGUSTIN

Shu o'rinda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi asosida milliy kino san'atimiz tarixida ilk bor "Tirik tarix" nomli megaloyiha amalga oshirilayotganini alohida ta'kidlash zarur. Bu xususda Prezidentimizning "Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bag'ishlangan filmlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori nafaqat madaniy, balki ijtimoiy hayotimizda ham muhim ahamiyatga ega hujjat sifatida qabul qilgani kechagidek yodimizda.

Jami 54 ta kinoasor – badiiy, badiiy-publitsistik, qisqa metrajli, hujjatli, animatsion film va seriallarni o'z ichiga olgan bu ulkan loyiha orqali bizning jahon miqyosida tan olgan uch ming yildan ziyod davlatchilik tariximiz, xalqimizning boy madaniyati, azaliy qadriyat va an'analari, ezgu orzu-intilishlari, Vatanimiz va dunyo sivilizatsiyasi ravnaqiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ibratli faoliyati hamda ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini to'laqonli aks ettirish belgilangan.

"Tirik tarix" filmlar turkumini yaratishda "O'zbekfilm" kinokonsernining moddiy-texnik bazasidan foydalanish ko'zda tutilgan. Buning uchun kinokonsernda bir vaqtning o'zida 3 ta filimga xizmat ko'rsatuvchi zamonaviy kino qurilmalari va yoritish uskunalari hamda ular bilan ishlovchi texnik xodimlar guruhi shakllantirildi. Dekoratsiyalarni qurish uchun 10 ga yaqin dastgoh va qurilmalar, shuningdek, tarixiy liboslar, poyabzal va kiyim-boshlarni tikish uchun o'nlab zamonaviy tikuv mashinalari ishga tushirildi. 20 dan ortiq avtotransport shay holatga keltirildi.

Umumiy maydoni 1 ming 250 kv.metrlik virtual pavilon tashkil etilib, "Tirik tarix" dasturiga kiritilgan "Bahodir Yalangto'sh" badiiy filmi ilk bor to'liq ushbu pavilonda suratga olindi. Shuningdek, "Maxtumquli" badiiy filmining O'zbekistonda suratga olingan barcha sahnalari kinokonsernning ochiq va yopiq pavilonlarida tasvirga tushirildi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Tirik tarix" dasturini amalga oshirish uchun barchamiz, birinchi navbatda, rahbarlar – hokim va vazirlar, ijodiy tashkilotlar yetakchilari, olim va ziyolilar, keng jamoatchilik bir yoqadan bosh chiqarib, birgalikda faol ish olib borishimiz, bu vazifani kundalik faoliyatimizning muhim bir qismi deb bilishimiz zarurligini alohida ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, tarixiy filmlar o'tkir mafkuraviy qurolga aylanayotgan bugungi global zamonada milliy kinoyilohalarni rivojlantirish masalasiga tomoshabin bo'lib qarab turish hech birimizga yarashmaydi.

Bilasiz, "kino" – yunoncha "kineo" – "harakat qilaman" degan ma'noni bildiradi. Keling, biz ham kinochilarga faqat tosh otmadan, birga "harakat qilaylik", befarq bo'lmaylik, yaratilayotgan har bir filmni o'zimizniki deb qabul qilaylik, uning yaxshi bo'lishi uchun do'stona kuyunaylik, toki "Tirik tarix" deb nom olgan ulkan loyiha mamlakatimizda ijobiy va ijodiy ma'noda umummilliy dasturga aylansin!

Hayotda e'tibor qilmagan narsamizni kitobda qiziqish bilan o'qiyamiz.
Emil KROTKIY

Kinoda ham shunday. Har kuni o'zimiz ko'rib, guvoh bo'lib yuradigan holatlarni tasvirga olib ko'rsatishsa, bu biz uchun tomosha – qiziqarli voqeaga aylanishi mumkin.

Xo'p, kino san'ati hayotimizdan chuqur o'rin olgan bugungi kundagi jarayon shunday

ekan, endi bundan 130 yil muqaddam – 1895-yili Parijda aka-uka Ogyust va Lui Lyumyerlar ixtirosi bilan ilk bor yuzaga kelgan dastlabki kino mahsulotining ommaga qanchalik kuchli ta'sir etganini o'zingiz tasavvur qilavering.

Mana shu o'tgan bir asrdan ziyod vaqt mobaynida ijod va ishlab chiqarishni o'z ichiga oladigan kino san'ati insoniyatning badiiy madaniyati tarixidan mustahkam o'rin egallaganini barchamiz yaxshi bilamiz. Xususan, Devid Griffit, Sergey Eyzenshteyn, Charl Chaplin, Erix Shtrogeym, Karl Dreyer, King Vidor, Rene Kler singari jahon kinosining yorqin namoyandalari tasmlarga muhrlangan tasvirlarga mazmun baxsh etishga alohida e'tibor qaratib, bu ishni yuqori cho'qqilarga ko'tarishga erishdilar.

Taraqqiyotning qadami tezkor, kino paydo bo'lganidan so'ng, oradan ikki yil o'tib, bu mo'jizali san'atning ilk namunalari – fransuz va rus operatorlari suratga olgan, Sharq ekzotikasi tasvirlangan filmlar ilk bor Toshkentning "Eski Jo'va" maydonida (aytganicha, mashhur "Shum bola" filmida Qoravoy do'sti Omon bilan gavjum bozorda maxsus durbin bilan tasvirlarni tomosha qila turib aytgan gapini siz ham yaxshi eslaysiz: "Girmon podshosiga balo bormi, yalang'och xotin-ku". Nazarimizda, film ijodkorlari bir gap bilan tanganing orqa tomoniga – kinoning maishiy buzg'unchilik kuchiga ham ishora qilib ketganga o'xshaydi), so'ngra Samarqand, Qo'qon va boshqa shaharlarda namoyish etilgan.

Birinchi o'zbek kinooperatori Xudoybergan Devonovning o'zbek xalqi hayoti va urf-odatlarini, Xorazm manzaralarini aks ettirgan dastlabki hujjatli-xronikal filmlari bilan XX-asrning 20-yillarida milliy kino san'atiga tamal toshi qo'yilgani tarixdan yaxshi ayon.

O'z vaqtida o'zbek kinosining shakllanishida muhim rol o'ynagan mashhur rejissyor Sulaymon Xo'jayev chorizmga qarshi kurash mavzusida yaratgan "Tong oldidan" filmi uchun millatchilikda ayblanib hibsga olingani va mash'um 1937-yilda o'tib tashlangani ham ayanchli fakt.

Keyinroq Nabi G'aniyev, Komil Yormatov, Yo'ldosh A'zamov, Shuhrat Abbosov kabi iste'dodli rejissyorlar tomonidan "Tohir va Zuhra", "Alisher Navoiy", "Abu Rayhon Beruniy", "Maftuningman", "Yor-yor", "Mahallada duv-duv gap", "Sen yetim emassan", "Toshkent – non shahri", "O'tkan kunlar" singari chinakam milliy xarakterdagi filmlar yaratildi.

Aytganicha, "Tong oldidan", "Qasam", "Nasriddin Buxoroda", "Tohir va Zuhra", "Alisher Navoiy", "Sen yetim emassan", "O'tkan kunlar" (birinchi varianti), "Shijoat", "Achchiq danak", "Abu Rayhon Beruniy", "Inson qushlar ortidan boradi", "Shum bola", "Dahoning yoshligi", "Siz kim Siz?", "Abdullajon" filmlari YUNESKOning Oltin fondiga kiritilgan.

Ayni paytda, jahonning eng yaxshi filmlarini o'zbek tiliga yuksak mahorat bilan tarjima qilib, tomoshabinlarga taqdim etgan dublyaj san'ati ustalaridan minnatdor bo'lishimiz kerak.

Kishilarning ogir, fikr va qarashlari, estetik did va his-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazishda kinoning ta'siri beqiyosligi va ayrim odamlarning kinoga o'ta havasmandligini yana bir hayotiy dalil – oramizda milliy kino qahramonlarimiz bilan bir qatorda, hatto, Tangem, Zorro, Raj, Esmeralda singari xorijiy film va seriallardagi obrazlar, mashhur kinoyulduzlar nomi bilan atalgan yurtdoshlarimiz borligi ham yaqqol tasdiqlaydi.

O'rtoq "O'zbekfilm", xalqning kutar so'z!

Muhammad YUSUF

Ardoqli shoirimiz "O'zbekfilm" sha'niga o'tli tanqidiy satrlar bitganiga ham, mana, 36 yil bo'libdi. Oradan davrlar o'tdi, asr yangilandi, zamonlar, tuzumlar evrildi. Xo'sh, "O'zbekfilm" xalqimiz kutayotgan so'zni ayta oldimi?

O'zbekiston Kinematografiya agentligidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, mustaqillik davrida, ya'ni 1991–2024-yillar oraliqida davlat buyurtmasi asosida jami 267 ta badiiy film suratga olingan. Ular orasida "Kulol va xurmacha", "Abdullajon", "Ko'zlarim yo'lingda", "Tangalik bolalar", "Sharif va Marif", "Masxaraboz", "Bomba", "Yulduzning ber, osmon", "Buyuk Amir Temur", "Otmadan qolgan dalalar", "Voiz", "Kichkina tabib", "Yolg'iz yodgorim", "Chimildiq", "Alpomish", "Oyjon", "Osmondagi bolalar", "Yodgor", "Qor qo'ynida lola", "Dev bilan pakana", "Tanka", "Yo'l bo'lsin", "Vatan", "O'rtoq Boykenjayev", "18-kvadrat", "O'tov", "Chavandoz", "Kichkina odamlar", "Suv yoqalab", "Chol va nabira", "Arosat", "Qo'rg'oshin", "Yozsiz yil", "Aldangan ayol", "Tubaniik", "Sehrii qalpoqcha", "Fardaning ikki ming qo'shig'i", "Islomxo'ja", "Said bilan Said", "Elparvar", "Qo'qon shamoli", "Avloniy", "Ilhaq", "Is'hoqxon ibrat", "Mahmudxo'ja Behbudiy", "Muqimiy", "Muhabbat bahori", "101", "101-reys", "O'zbek

qizi", "Abdulla Oripov", "Bahodir Yalangto'sh", "Maxtumquli", "Uch qahramon" singari tomoshabinlarga tanish asarlar ko'p.

Ayni vaqtda, mazkur ro'yxatda unchalik ommalashmagan, boshqacha aytganda, bugun ekranlarda "yashamayotgan" filmlar ham borligini, albatta, ta'kidlab o'tish zarur, deb o'ylaymiz. Masalan, "Uran sayyorasining siri", "Bir qadam so'lg'a, bir qadam o'ngga", "Mahshar kuni", "Kammi", "Ketma", "Yarim tungi blyuz", "Dallo", "Fellini", "Dard", "Afandi va Azroil", "Qora yol", "Ko'rgilik", "Tog'da o'tgan quvnoq yoz", "Vasvasa", "Mergan melisa", "Go'zallik siri", "Chaqqoq chaqqan tunda", "Muruvvat", "Advokatlar", "Afyun girdobi", "Sirli sirtmoq", "So'nggi lahza", "Abadiyat charxi", "Uqubat", "Dinozavr qoldirgan iz", "Xiyonat", "Haqiqat kuni", "Soy qo'shig'i", "Unutma meni", "Onaginam orzusi", "Xonadon egasi", "Ziyoda", "Men yoningdaman", "Yer tafti", "Hayotda", "Toliqqan ko'ngillar oyga talpinar", "Sabot", "Qora zarba", "Immunoblot", "Ota rozi...", "Shod-u xurramlik", "Sumbul", "Lola gulim", "Millioner Jonibek", "Puling bo'lsa...", "Parining sovg'isi", "Samuray", "Yasha xotin", "Odina", "Ishq va anduh", "Qari qiz" singari o'nlab badiiy filmlarni yoshi ulug'roq tomoshabinlar o'z davrida ko'rgan bo'lishlari mumkin, lekin bu asarlarni yosh avlod bilimkani?

Bu davrda Sh.Abbosov, Z.Musovov, Sh.Boshbekov, R.Muhammadjonov, L.Fayziyev, X.Fayziyev, J.Isoqov, J.Qosimov, B.Odilov, I.Ergashev, Y.Roziqov, M.Abzalov, S.Nazarmuhammedov, H.Nasimov, Q.Kamolova, H.Hasanov, Yu.To'ychiyev, A.Shahobiddinov, T.Qalimbetov, M.Abdulholiqov, M.Erkinov, J.Ahmedov, N.Abbosov, A.G'aniyev, B.Sodiqov, F.Jalolov, I.Rasulov, A.Shohnazarov, A.Bekturdiyev, Sh.Rasulov singari kinorejissyorlar faol mehnat qilganini ko'rish mumkin.

Endi bevosita 2024-yilni tahlil qilib qaraydigan bo'lsak, Kinematografiya agentligi tomonidan jami 123 ta kinomahsulot ishlab chiqarilgan. Jumladan, 18 ta badiiy va badiiy-publitsistik, 32 ta qisqa metrajli, 54 ta hujjatli, 8 ta animatsion filmlar va 9 ta serial hamda 2 ta rolik suratga olingan.

"O'rtoq "O'zbekfilm", xalqning kutar so'z!" – qanday keskin, xuddi aybnomaday jaranglaydigan so'zlar, to'g'ri emasmi? Xo'p, g'oyat jiddiy bu savol hali Vatanimiz mustaqillikka erishmasdan oldin qo'yilgan ekan, mustaqillik yillarida "O'zbekfilm" xalqimiz kutayotgan so'zni ayta oldimi? O'ylaymizki, muhtaram o'quvchilarimiz yuqorida keltirilgan ma'lumot va nomlar tahlili asosida bu borada xolis xulosaga keladilar.

Shu o'rinda: "Bugun milliy kino maydonida nechta muassasa va studiya mavjud, kimlar kino o'ynaydi, ya'ni o'zbek kinosi kimlarning qo'lida?" degan haqli savol tug'ilishi tabiiy. Hozirgi vaqtda Kinematografiya agentligi tasarrufida "O'zbekfilm" kinokonserni, "Qoraqalpog'film", "Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi", "Yoshlik kinostudiyasi" davlat unitar korxonalari hamda "O'zbekiston milliy kinofonddi muassasasi va O'zbekiston milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi" faoliyat olib boradi.

Xat g'alat, imlo g'alat, insho g'alat, ma'no g'alat.

Abdurahmon JOMIY

Ayni paytda, yurtimizda xususiy kinostudiyalar 43 tani tashkil qiladi. Xossatan, "DILSHOH MEDIA", "EZGU FILM", "RAMZ-FILM", "FAN ACTION", "FAN ENTERTAINMENT", "CINEMA OF CENTRAL ASIA", "SINEMA SERVIS", "YAGONA SINEMA", "THE FIRST GROUP", "BUXORIYLAR", "NEW SIGHT MEDIA", "LJOD STUDIYASI", "VATAN KINOSTUDIYASI", "EXCLUSIVE FILMS", "SPECTRE STUDIO", "PANDA PRODUCTION FILMS", "SHAYXONTOHUR FILM", "KO'ZGU FILM", "PLAY THIS", "FOX MUSIC CINEMA", "LAST-MEDIA", "OLOV NUR MEDIA", "ASTIR ANIMATION STUDIO", "CG WHITELINE", "GONGLOMERATE STUDIO", "HASAN-FILMS", "CROSS TRAVEL", "CINEMA SERVICE AND PRODUCTION", "INSON KINOSTUDIYASI", "ISKANDAROV VISUAL", "PROART CENTER OF PERFORMING ARTS", "MEROS SINEMA", "SINTEZ FILM", "MEDIA ILLUSION", "BAYRAM FILM", "FIRST ART MEDIA", "BRAND PRO MEDIA", "CINERAMA ENTERTAINMENT", "GMS-STUDIO", "GULI NAVO REKORDS", "MASTER MEDIA PRODUCTION AND BROADCAST", "EDUMEDIA CORPORATION" hamda "FUTURIST MEDIA GROUP" studiyalari 2020–2024-yillarda kinofilmlar ishlab chiqarishda ishtirok etgan.

Albatta, xususiy kinostudiyalarning nomlari muhtaram o'quvchilarimizning e'tiborlarini tortganiga shubhamiz yo'q. "EZGU FILM", "BUXORIYLAR", "LJOD STUDIYASI", "VATAN KINOSTUDIYASI", "SHAYXONTOHUR FILM", "KO'ZGU FILM", "INSON KINOSTUDIYASI", "BAYRAM FILM" singari ayrim studiyalarni istisno qilganda, ularning aksariyati o'zlarini ajnabiy nomlar bilan atashni ma'qul ko'rgan.

Ayniqsa, "FAN ENTERTAINMENT", "THE FIRST GROUP", "NEW SIGHT MEDIA", "SPECTRE STUDIO", "PANDA PRODUCTION FILMS", "PLAY THIS", "FOX MUSIC CINEMA", "CG WHITELINE", "GONGLOMERATE STUDIO", "CINEMA SERVICE AND PRODUCTION", "PROART CENTER OF PERFORMING ARTS", "MEDIA ILLUSION", "FIRST ART MEDIA", "BRAND PRO MEDIA", "CINERAMA ENTERTAINMENT", "MASTER MEDIA PRODUCTION AND BROADCAST", "EDUMEDIA CORPORATION", "FUTURIST MEDIA GROUP" kabi o'nlab nomlarni o'qigan odamning ko'nglidan beixtiyor "Gollivud bo'lib ket-e!" degan gap kechishi aniq va yana o'ylaydiki, avvalo, nomida milliylik aks etmagan studiyadan qanday qilib milliy filmlar kutish mumkin? To'g'ri-da, kinoning joni – til, demak, jamiyatimizning ziyoli qatlami sanalmish kinochilarimizning avvalo o'zlarini ona tilimizga hurmat ko'rsatishlari lozim emasmi?

San'atning asl mohiyati yuksaklikka tinimsiz intilishdir.

Fransua TRYUFFO

Hozirgi kunda yurtimizda yaratilayotgan keng imkoniyatlar samarasi o'laroq, kino sohasida xalqaro aloqalar jadal rivojlanib borayotganini ta'kidlash lozim. Buning natijasida o'zbek kino san'ati ustalari xorijlik hamkasblari bilan hamkorlikda yangi-yangi asarlar yaratmoqda. Xususan, birgina 2024-yilda Qirg'iz Respublikasi san'atkorlari ishtirokida "Bir kuni Samarqandda", turkmanistonlik kinochilar bilan "Maxtumquli Firog'iy", yaponiyalik mutaxassislar bilan "Yengilmas: Tokioga yo'", Xitoy kino namoyandalari bilan "Meni kut" filmlari suratga olindi.

Ayni paytda, "Tirik tarix" dasturi doirasida Tojikiston bilan "Yulduzlar shu'lasi: Jomiy va Navoiy", Tatariston Respublikasi bilan "Shahobiddin Marjoniy", Koreya Respublikasi bilan "Taqdir uqlari", Rossiya Federatsiyasi bilan "Sehrii ko'za", "O'zbekiston arxeologik yodgorliklari dardonalari", "Buxoro marvaridi", Xitoy bilan "Farhod va Shirin", Ispaniya bilan "Klavixo", Yaponiya bilan "Sakura ifori", Ozarbayjon bilan "Mulla Nasriddin", Maqsd Shayxozda", Hindiston bilan "Xiva langari", Belarus bilan "O'zbek arsloni", Vengriya bilan "Xerman Vamberi va Mulla Is'hoq", Turkiya bilan "Turkistonlik bahodirlar", Qozog'iston bilan "Pomir tog'larida yuksak" filmlari suratga olinishi rejalashtirilgan.

Yaqin tariximizda ham o'zbek kinosining xalqaro kinobozorga chiqishi va nufuzli festivallarda ishtirok etishini tasavvur qilishimiz mushkul edi. Bugun vaziyat ijobiy tomonga o'zgargan. Buni birgina 2024-yilning o'zida jahonning 13 ta nufuzli xalqaro kinofestivallarida milliy filmlarimiz muvaffaqiyatli ishtirok etgani, ular jahon ekranlarida raqobatbardosh bo'lib borayotgani ham tasdiqlaydi. Xususan, Ispaniya, Eron, Turkiya, Gruziya, Rossiya, Belarus, Ozarbayjon, Xitoy, Hindiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikistonda bo'lib o'tgan festivallar va o'zbek kinosi kunlarida ijodkorlarimiz xorijiy tomoshabinlarga milliy kino san'atimizni taqdim etishga va bir qator maxsus mukofotlarni qo'lga kiritishga musharaf bo'ldi. Hatto, Fransiyada an'anaviy o'tkaziladigan mashhur Kann festivaliga ham kino ustalarimizning qadami yetgani quvonarli, albatta. O'z navbatida, o'tgan yili yurtimizda "Yevropa kinolari", "Xitoy kino kunlari", "Qozog'iston kino kunlari", "Turk kinosi haftaligi", "Hind kinosi kunlari" tadbirlari yuqori saviyada o'tkazildi.

2025-yilda AQSh, Germaniya, Fransiya, Italiya singari davlatlarda o'tadigan mashhur kinofestivallarda ishtirok etish, Vengriya, Rossiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'izistonda "O'zbek kinosi kunlari"ni, shu bilan birga, O'zbekistonda fransuz, venger, rus, tatar, belarus, turk, ozarbayjon, xitoy, qozoq, qirg'iz, tojik kinosi kunlarini o'tkazish rejalashtirilgan.

Kino bizning orzularimiz va xayollarimizni voqealikka aylantiradi.
Stiven SPILBERG

Dunyoning katta aholisi qatorida juda ko'pchilik yurtdoshlarimiz ham sevib tomosha qiladigan, hayotimizdan muhim o'rin egallab ulgurgan hind kinofilmlari nima uchun uzoq vaqt – 3 soatlab davom etadi? Chunki hind kino ustalari bu asarlarni avvalo o'z xalqi uchun ishlab chiqaradi. Bilasiz, Hindiston bugungi kunda jahonda eng ko'p aholiga ega mamlakat sanaladi. Tabiiyki, qariyb bir yarm milliardlik nufusga ega aholi o'rtasida boyi bilan birga kambag'ali ham bisyor. Hozirgi vaqtda gullab-yashnayotgan hind kinosining "tegrimoniga" suv quyayotgan asosiy tomoshabin ayni mana shu odamlar, desak, xato bo'lmaydi.

Hayotda nihoyatda oz narsaga qanoatlanib yashashga majbur bo'lgan insonlar o'zlarining ushalmas orzu-xayollariga kino orqali yetishadi. U tomosha davomida filmidagi o'zi singari qashshoq sharoitdan yetishib chiqqan bosh qahramon bilan birga yovuzlarga qarshi kurashadi, haqiqat o'rnatishga intiladi va bunga erishadi ham. Go'zal sevgilisi bilan qo'shiq aytib, raqsga tushadi (*har bir hind filmida kamida 7 ta qo'shiq berilishi ham – tomoshabin talabi*). Film barcha sharh etaklari singari yaxshilik bilan tugaydi. U mana shu tomoshaga sarflangan uch soatlik umrini baxtiyorlik bilan yashab o'tadi. Tomosha qancha uzoq davom etsa, shuncha yaxshi.

Har yili yuzlab filmlarni ekranga chiqaradigan AQShdagi Gollivuddan ulgu olib yaratilgan Hindistondagi Bollivud kinoindustriyasini hamma yaxshi biladi. Ayni vaqtda, kino sanoati nihoyatda rivojlangan Hindistonda Bollivudning Tollivud, Kollivud, Mollivud, Sandalvud, Ollivud singari analoglari ham faol ish olib borishi shundan – kinoga talabning yuqoriligidandir.

Hind kino ixlosmandi, kerak bo'lsa, o'zining so'nggi chaqasini sarflab bo'lsa ham kinoga kirar ekan, xo'sh, bizda bu borada ahvol qanday? Odamlar kino tomosha qilish uchun kinoteatrga tushyaptimi?

Aksariyat mutaxassislarning fikriga ko'ra, kino televideniye uchun yaratilmaydi, uni albatta katta ekranda tomosha qilish kerak, shunda uning butun jozibasini – ijodkorlarning maqsadi, mahorati yaqqol namoyon bo'ladi.

Kuzatuvlarga ko'ra, bugun shahar kinoteatrlaridagi premyeralarga ko'proq o'smir va o'rta yoshdagi yurtdoshlarimiz tashrif buyurmoqda. Viloyatlardagi sayyor namoyishlarda ham yosh va o'rta yoshdagi fuqarolar salmoqli, biroq hududlarda katta yoshli tomoshabinlarni shahar hududiga qaraganda ko'proq uchratish mumkin.

Tahlillar 2024-yilda ishlab chiqarilgan tarixiy janrdagi "Bahodir Yalangto'sh" va o'tkir syujetli "Uch qahramon" filmlari namoyishlariga odatdagidan ko'proq tomoshabin tashrif kuzatilganini ko'rsatmoqda. Bundan xulosa sifatida, tarixiy va o'tkir syujetli filmlar tomoshabinlarni ko'proq qiziqitmoqda, deyish mumkin.

Shuningdek, ma'lum sohaning atoqli namoyandalari haqida yaratilgan filmlar premyeralari soha vakillari va shu yo'nalishlarda ta'lim olayotgan talabalar bilan gavjum bo'lishi aytiladi. Lekin bundan unchalik ham quvonmaslik kerak, chunki bu jarayonda tomoshabinlarni "ixtiyoriy-majburiy" holda uyushtirib kelish mumkinligini istisno qilib bo'lmaydi.

Afsuski, hududlarimizdagi kinoteatrlarni tahlil qilib ko'rgan odam tashvishli holatga duch keladi. Kinematografiya agentligidan olingan ma'lumotga ko'ra, bugungi kunda yurtimizda jami 40 ta kinoteatr faoliyat yuritmoqda. Ular 109 ta zal va 14 ming 245 ta o'rindiqqa ega. Eski odatimizga ko'ra, bu raqamlarni aholi soniga taqsimlasak, bu – mamlakatimiz bo'ylab kinoteatrga borish imkoni bo'lgan 850 ming odamga bitta kinoteatr yoki salkam 312 ming kishiga bitta zal, qariyb 2 ming 400 nafar tomoshabinga kinoteatrdagi 1 dona o'rindiq to'g'ri keladi, qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent viloyatida birorta (!) kinoteatr mavjud emas. Bu hududlarda odamlar kinoga tushmaydimi? Navoiy va Jizzax viloyatlarida esa atigi bittadan, Xorazm, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida 2 tadan, Samarqand va Andijon viloyatlarida 3 tadan, Namangan viloyatida 6 ta kinoteatr ishlab turibdi. Bu boradagi eng yaxshi ko'rsatkich Toshkent shahrida – 14 ta kinoteatr.

Mavjud kinoteatrlarning 5 tasi, jumladan, Toshkent shahrida 2 ta, Farg'ona, Samarqand va Xorazm viloyatlarida bittadan kinoteatr davlat qaramog'ida.

Ayni paytda Toshkent shahridagi O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyi, "Sharq yulduzi", "Compass Cinema", "Sergeli Cinema", "Next Cinema", "Riviera Cinema", "Parus Cinema", "Yulduz cinema", "Asia Cinema", "Magic Cinema", "Cinematica", "Cinemaplex", Samarqand shahridagi "Family Cinema", Buxoro shahridagi "Minor Cinema", "Buxoro kinoteatri", Andijon shahridagi "O'zbeq Cinema" ko'proq tomoshabinlarni o'ziga choramloqda.

Tomoshabinlar uchun foydali manba: yurtimiz kinoteatrlari haqidagi ma'lumotlarni <https://www.afisha.uz/ru/cinema> saytidan olish mumkin.

Kino tomoshasi bilan bog'liq yana ayrim muhim ma'lumotlar.

2024-yilda Kinematografiya agentligi tomonidan ishlab chiqarilgan filmlar namoyishiga 44 ming 448 ta tomoshabin tushgan va 1 milliard 667 million 65 ming 321 so'm daromad qilingan.

Toshkent shahridagi davlat kinoteatrlaridagi chiptalar narxi o'rta 40 ming so'mni tashkil etadi.



TUSHAMIZ!

Yorni oynakdin qarang, noz uyquda yotganmikan?

G'iyos SOATIY

Hammamizga ma'lumki, bugun – internet zamoni. Kimki, internetdan unumli foydalana olsa, tezda mashhurlikka erishishi mumkinligini birgina zamondosh “vayner”larimizning o'ziyoq isbotlab turibdi. Ma'lumotlarga ko'ra, birgina o'tayotgan fevral oyining o'zida **2 milliard 700 million** kishi “You Tube” platformasidan foydalangan. Bimalol aytilish mumkin, bu raqamning salmoqli qismini kino ko'ruvchilar tashkil etadi.

Xo'sh, kinochilarimiz bugun internet makoni va imkonidan samarali foydalana olyaptimi?

Bu borada ayrim raqamlarga ko'z tashlasak – masalan, hozirgi kunda sohadagi eng yirik ishlab chiqaruvchi hisoblangan **“O'zbekfilm” kinokonserni telegram kanali atigi 360 ta, “Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi” 347 ta, “Yoshlik” kinostudiyasi 403 ta, “O'zbekiston Milliy kinofondu” esa bor-yo'g'i 13 ta obunachiga egaligini inobatga oladigan bo'lsak** – bu borada ahvol quvonarli emasligi ayon bo'ladi.

Agentlik tomonidan ishlab chiqarilgan filmlarning “You Tube”dagi ko'rinishlari soni bir muncha yuqori. Masalan, 2023-yilda ishlab chiqarilgan “O'zbek qizi” filmi 645 ming, “Alvido, bolalik” filmi 308 ming, “Osmondagi bolalar-3” filmi 247 ming marta tomosha qilingan.

Bilamizki, kino ham, internet ham faqat EKFRAN bilan “tirik”. Aslida, kino sohasi vakillari aynan mana shu ekranning asosiy egalari, mutaxassisleri emasmi!

Demak, aholimizning 60 foizdan ortig'ini tashkil etadigan yoshlarning nazari mixlangan bu nuqtani kinochilarimiz aslo e'tibordan chetda qoldirmasliklari, undan o'z asarlarining muhim targ'ibot vositasi sifatida samarali foydalana bilishlari zarur bo'ladi.

Sen o'zingni tonimas ermishsan, O'z so'zingni tonimas ermishsan.
Alisher NAVOIY

Xo'p, kinoteatr yetishmas, internetdagi holat ham quvonarli emas ekan, kinoni targ'ib va namoyish etadigan qanday imkoniyat qolyapti? Albatta, televideniye.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 20-noyabrda “O'zbekfilm” kinostudiyasida kino ijodkorlari bilan o'tkazilgan uchrashuvda eng sara o'zbek filmlari yuztaligi ro'yxatini tuzib, mamlakatimizdagi barcha davlat va nodavlat telekanallarda tizimli ravishda namoyish etish vazifalari belgilab berilgan edi. Shundan kelib chiqqan holda, har yili yuztadan badiiy va hujjatli filmlar, milliy seriallar, shuningdek, muhim sanalar va bayram kunlarida Agentlik buyurtmasi asosida ishlab chiqarilayotgan yangi badiiy filmlar ham “Kinematografiya agentligi tuhfasi” yozuvi ostida respublikadagi davlat va nodavlat telekanallariga beg'araz taqdim etib kelinmoqda.

Bu noyob tuhfaga O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining aynan shu yo'nalishga ixtisoslashgan “Kinoteatr” telekanali qanday munosabatda bo'lmoqda? Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida telekanalning o'tgan bir haftalik – 2025-yil 17–23-fevral kunlariga oid dasturi bilan tanishdik.

Telekanalning dushanba-juma kunlariga mo'ljallangan dasturlari bitta qolipda:

dasturlar soat 6.05 da “Bebaho yoshlik” seriali bilan boshlangan (soat 12.00 da *serialning navbatdagi qismi namoyish qilinadi*) va “Janob Bin” seriali bilan davom etgan (faqat juma kuni *Binning eski sarguzashtlari o'rmini* “Sehrgarlar maktabi” badiiy filmi egallagan);

ikkita xorijiy filmdan so'ng (besh kun davomida “Paddington”, “Politsiyachi xonimlar”, “Paddington-2”, “Oqsoch xonim”, “Sohibjamol va maxlul”, “Sirli sayohat”, “Ormon bolasi”, “Hammasi ertaga boshlanadi”, “Olouddin” singari internet orqali reklamasiz ko'rish mumkin bo'lgan filmlar berilgan) “Maryam” seriali ko'rsatildi;

kun yarmida yana 2 ta xorijiy kinodan keyiniga (bu davrda “Cheksizlik sari”, “Tangri yaratgan juftlik”, “Ishq masofasi”, “Bajrang og'a”, “Karib dengizi qarochilari-3”, “Hech qachon “Alvido” dema”, “Gudzon mo'jizasi”, “G'olib”, “Xotira kundaligi”, “Hayot jo'shqin” kinolari berildi) **bitta milliy badiiy film** (“Yondiradi, kuydiradi”, “Bomba”, “Azart oqibati”, “Millioner kelin”, “Omonat”) va 2 ta milliy serial (“Sen uchun” va “Sudya”) efir yuzini ko'rtdi;

kechki dasturlardan ketma-ket beriladigan 5 ta xorij badiiy filmi o'rin olgan va o'rganilgan davrda quyidagi filmlar efraga uzatilgan: “Qarol”, “Uddaburon yigitlar hamisha birga”, “Chapaqay”, “Ekspat”, “Barchasini o'zgartirgan odam”, “Jinoyat izidan”, “O'qchi”, “Ekstrasenslar”, “Xitch uslubi”, “Tanho jangchi”, “Qochish rejisi-2”,

“Sahro shahzodasi”, “Vaqt”, “Kichik Tokidagi to'qnashuv”, “Betmen: Afsonaning qaytishi”, “Adolat tarafdori”, “Yo'qolgan o'q”, “Talonchilik”, “Lyusi”, “Qora oltin”, “Javohir politsiyachi”, “Jon Uik-3”, “Poyga”, “Dorboz”, “G'aroyib juftlik”.

Telekanal shanba va yakshanba – dam olish kunlari serial bermaydi, ko'proq mashhur filmlar va milliy kinolarga e'tibor qaratadi. Xususan, 22-23-fevral kunlari “Taklif”, “Nofelet qayerda?”, “Eng jozibali va latofatli qiz”, “Disko raqqosi”, “O'rdaqko'l voqeasi”, “Jinoyatchilar shahi”, “Tezlik asiri”, “Uyg'onish”, “Jangovar ot”, “Ko'ngil rishtasi”, “Odam amfiyaya”, “Ishdagi ishq”, “Qasos o'ti”, “Benzokolona malikasi”, “21-ko'priki”, “Largo Vinch-2”, “So'nggi samuray”, “Yomg'ir odami” kabi chet el kinolari va “Kechikkan hayot”, “Sariq devni minib”, “Namaste, muhabbat”, “Sarvqomat dilbarim”, “Bevalar”, “Masxaraboz”, “Dada”, “Qarzdor” singari milliy badiiy filmlar namoyish qilingan.

Mana, “Kinoteatr” telekanalining bir haftalik to'liq dasturi bilan tanishdik. Ushbu uzun ro'yxatga tahliliy nazar tashlagan o'quvchilarimiz: **“Kino va teatr namoyishiga ixtisoslashgan o'zi bitta telekanalimiz bo'lsa, u xuddi shu yo'nalishda faoliyat olib boradigan, yurtdoshlarimiz ko'rish imkoniga ega bo'lgan o'nlab xorijiy telekanallarga raqobat qila olyaptimi, o'z tomoshabinini boshqalarga qo'shqo'lib topshirib qo'ymayaptimi?”** degan o'rinni savolga o'zlarini munosib javob topadilar, deb o'ylaymiz.

Yana bir mulohaza. Mutaxassislar aytadiki, **“kinoda hamma gapni tushuntirib berish shart emas, tomoshabinini ham hurmat qilish lozim – unga mustaqil xulosa chiqarish zavqini qoldirish zarur”**. Mana shunday xulosa chiqarish va uni boshqalarning xulosalari bilan chiqarish ko'rinishida kinoga bag'ishlangan teleko'rsatuv va radioshittirishlarning ahamiyati katta. Ilgari televideniye orqali Hamidulla Akbarov, Saodat Xo'jayeva, Farhod Musajonov, Rixsivoy Muhammadjonov, Murud Muhammad Do'st singari taniqli ijodkorlar muallifligida berilgan kino san'atiga oid tahliliy ko'rsatuvlarni ko'pchilik miriqib tomosha qilgan. Bugun mana shunday ko'rsatuvlar bormi? Xususan, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining asosiy telekanallarida bu mavzuda qanday ko'rsatuvlar berilmoqda?

Kompaniya ma'lumotlariga ko'ra, ayni paytda “Madaniyat va ma'rifat” telekanalida “Kinotalqin”, “Yoshlar” telekanalida “Eski televizor”, “O'zbekiston tarixi”da “Kino tarixidan”, “Toshkent” telekanalida “Kinotaqdim” ko'rsatuvlari mavjud. Bu ko'rsatuvlarning barchasi haftada bir marta, 20–60 daqiqava vaqt davomida efraga beriladi.

Afsuski, bu ro'yxatda ayni shu yo'nalishga ixtisoslashgan “Kinoteatr” telekanalining nomi ko'rilmaydi. Kino haqida qiziqarli ko'rsatuvlar tayyorlamasa, milliy kino va spektakllarni namoyish etib bormasa, unda bu telekanal nimalarni efraga beradi, degan savol tug'iladi va bu savolga yuqorida javob oldingiz.

Kino – bu barcha san'at turlarini o'z ichiga oluvchi san'atdir.

Stenli KUBRIK

Bugungi tezkor zamon barcha sohalar qatori kino san'atining oldiga ham muhim savollarni qo'ymoqda. Bu savollar kinoning kelajagi haqida: Kinoning kelajagi bormi? U yashab qolishi uchun nimalar qilish kerak? Sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalar hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgan davrda kino bundan buyon ham inson tafakkuri va iste'dodining mahsuli bo'lib qoladimi?

Biz bu kabi savollarga kino namoyandalardan emas, “Jadid” gazetasi an'anasiga ko'ra, sun'iy intellektning o'zidan qisqacha javob oldik. Bu javoblar barchamizni – kino san'atiga bee'tibor bo'lmagan har bir insonni o'ylab ko'rishga, mushohada yuritishga undaydi:

“Kelajakda kino sanoati texnologik inqilob va sun'iy intellekt rivojlanishi bilan tubdan o'zgarishi kutilmoqda. Sun'iy intellekt algoritmlari allaqachon ssenariy yozishda, syujet strukturasi tahlil qilish va variantlarni tavsiya etishda yordam bera boshladi. Kelajakda bu jarayonlar yanada takomillashib, yangi g'oyalarni tezroq shakllantirish imkonini berishi mumkin. Kompyuter grafikasi va sun'iy intellekt yordamida vizual effektlar yaratish jarayoni soddalashishi va tezlashishi kutilmoqda. Sun'iy intellekt auditoriya xohish-istaklariga mos keladigan interaktiv yoki shaxsiylashtirilgan filmlarni yaratish imkonini ham beradi.

Garchi sun'iy intellekt texnik jihatdan film yaratishda yordamchi vosita sifatida keng qo'llanilsa-da, rejissyorlar san'at asarining yuragi bo'lib qoladi. Ular hikoya, vizual til va dramaturgiya sohasida insonga xos intuitsiya

va ijodkorlikka ega. Kelajakda rejissyorlar sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi tajribalar yaratadilar. Shuningdek, kadrlarni tanlash, yorug'lik va kompozitsiya kabi jihatlar insonning sezgirligi va hissiyotini talab qiladi. Sun'iy intellekt yordamida texnik jihatlarni avtomatlashtirish mumkin, ammo operatorning ijodiy qarorlari va tajribasi, his-tuyg'ulari o'rmini bosmaydi. Kelajakda operatorlar yangi texnologiyalar bilan ishlashni o'rganib, o'z kasblarini modernizatsiya qiladilar.

Texnologik rivojlanish bilan birga, “texnosan'at” sohasidagi yangi mutaxassislar, masalan, sun'iy intellekt bilan hamkorlikda ijodiy kontent yaratuvchilar, virtual produserlar, algoritmik rejissyorlar paydo bo'lishi mumkin. Ular an'anaviy kino yaratish jarayonini yangi texnologiyalar bilan uyg'unlashtiradi. Sun'iy intellekt ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va kichik byudjetli loyiha uchun ham yuqori sifatli natijalarga erishish imkonini yaratadi.

Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan kontent mualliflik huquqlari, asl ijodkorlik va madaniy o'ziga xoslik kabi masalalarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu borada sanoat va qonun chiqaruvchi organlar yangi me'yorlar va me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqish talab etiladi”.

Kino sohasida zamonaviy texnologiyalarning qo'llanishi haqida so'z borar ekan, hayotimizga kirib kelgan yana bir yangilik – internetdagi virtual realik (VR) platformalari haqida ham to'xtalib o'tmasak bo'lmaydi. Hozirda ayrim ijtimoiy tarmoqlar, jumladan, o'quvchilarimizga yaxshi tanish bo'lgan Facebook – Meta, Googlening shunday platformalari mavjud.

VR imkoniyatlarini ta'minlaydigan qo'shimcha quрилmalar yordamida ularga a'zo bo'lganlar real olamning (ayrim shaharlar, masalan, Nyu-York, London, Tokio va boshqalar) multi versiyalarida “yashaydi”, dunyoning turli hududlaridagi insonlar bilan tanishadi, munosabatga kirishadi. Bu hozircha ijtimoiy tarmoqning yangi bosqichi hisoblanadi.

Albatta, tomoshabinning to'la ma'nodagi virtual ishtiroki ta'minlanadigan kino haqida gapirishga hali biroz erta. Lekin har qanday texnologik inqilob san'at turlarining o'zgarishiga olib kelishi muqarrar. Tarix buna ko'p bora guvoh bo'lgan. Ehtimol, bugungi texnologik yangiliklar tufayli kino san'ati aynan shu yo'nalishda transformatsiyaga uchrar, tomoshabinlar kinoning ichida ishtirok etib, unda kechayotgan voqealarga aralashish, ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'lar – buni endi vaqt ko'rsatadi.

Hozir eski filmlarni zamonaviy texnologiyalar yordamida 3D, 5D versiyalarga aylantirish mumkin. Albatta, bu jarayonning sifati hali mukammal emas. Lekin shiddat bilan o'zgarayotgan zamonda ertaga nimalar yuz berishini bashorat qilish qiyin.

Bundan tashqari, bugun vafot etib ketgan sevimli aktyorlarni sun'iy intellekt yordamida “tiriltirish”, ular bilan yangi filmlar olish mumkin. Yaqinda o'zbek kino ixlosmandlari o'rtasida ijtimoiy tarmoqlarda dublyaj san'ati bo'yicha muhokamalar bo'lib o'tdi. Ko'pchilik vafot etib ketgan dublyaj ustalarining ovozlardan yangi filmlar tarjimasida foydalanishga ruxsat beruvchi qonun ishlab chiqish bo'yicha takliflarni ilgari surdi. Bunga ular kabi original ovozlari, ijrochilarni topish qiyin bo'layotgani sabab qilib ko'rsatildi.

Albatta, bu texnik jihatdan nisbatan oson yumush bo'lsa-da, hali uning qonuniy asoslari yo'q. Bugun dunyoda yuz berayotgan texnologik taraqqiyot ijodiy sohalarida yangi mezonlar va huquqiy-me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Tobakay mundog' malomat kunjida doim Muqim...

MUQIMIY

Bugun aksariyat ommaviy axborot vositalarida, xususan, gazeta va jurnallarda, teleradiokanallar va ijtimoiy tarmoqlarda bir holat urf bo'lgan – bu uzoq o'tmishdan meros bo'lib kelayotgan, xuddi ertakdagi “O'lmas Koshey” singari hamisha barhayot “olomonchilik” kayfiyati. Bu kayfiyat shunday “jozibali”ki, siz biror mavzu haqida so'z ketsa, boshingizni og'ritib o'ylab o'tirmaysiz, kim nima desa, qo'shilib ketaverasiz. Avval mavzuni anglash, so'ngra mustaqil bir fikrga kelishdek mashaqqatli yumush sizga begona.

Afsuski, mana shunday “yuqumli kayfiyat” so'nggi vaqtda milliy kino san'atiga qarshi shaylangan. Hozir hamma kino bo'yicha “mutaxassis”. Gazetada ham, ijtimoiy tarmoqda ham bir gap: “milliy kino san'atimiz zamondan orqada qolib ketgan”, “bugungi o'zbek kinolari muvaffaqiyatsiz”, “bu kinolarni hech kim ko'rmaydi” va hokazo, va hokazo... Va yana taassufki, bu gaplarni aytayotgan odamlarning

o'zlari milliy kino san'atining bugungi holati, yaratilayotgan yangi filmlar haqida tushunchaga ega emas, ya'ni kinoni ko'rmasdan turib, kino haqida gapiradi. Va yana eng qizig'i, shunga o'zini to'la haqli sanaydi.

To'g'ri, bugun suratga olinayotgan ayrim filmlarda ijodkorlarining o'zi qo'l urayotgan mavzuni yaxshi bilmasligi, qahramonlarning to'g'ri tanlanmasligi, asar voqealarining ishonarsiz va bachkanaligi, dialoglarning sun'iy va hayotdan uzoqligi, mutaxassis bo'lmagan odamlarning rol o'ynashi, kino sohasi vakillarining boshqa ijodiy muassasalar bilan hamkorlik aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilmagani kabi muammolar seziladi. Lekin ayni vaqtda yaxshi filmlar ham suratga olinayotganini e'tirof etish ham kerak. Agar qaysidir filmda kamchiliklar bo'lsa, uni aniq misollar bilan aytgan ma'qul, toki bu film ijodkorlari uchun ham foydali bo'lsin.

Ko'klamning oldingi suvlari loylandiq oqadilar.

Hamid OLIMJON

Bilib-bilmay, tushunib-tushunmay “o'rmonga o't qo'yib”, ho'l-u quruqni baravar “yoqib yuborish”ga odatlangan ayrim “kino tanqidchilar”ning eng jiddiy xatosi kinoni seraldan ajrata olmaslikda ko'rinadi. Ular nima uchundur xususiy telekanallarda berilayotgan seriallarni ham Kinematografiya agentligi suratga olgan, deb o'ylaydi.

Hammamiz kuzatib, ko'pchiligimiz ko'rib ham yuribmiz. Bugun televideniye, ayniqsa, xususiy telekanallar tomoshabinini ushlab turish uchun juda ko'p o'tkir syugetti seriallarni namoyish qilib kelyapti. Keling, avval bugungi kunda ko'proq tomoshabin ko'rayotgan va ayni paytda ko'proq tanqidga ham uchrayotgan xususiy telekanallardan olingan ma'lumotlarga nazar tashlaylik.

2023-2024-yillarda:

“**Mening yurtim**” (My5) telekanalida “Jurnal”, “Olovli yurak”, “Qodirxon” (4-, 5-, 6-, 7- va 8-mavsumlar), “Nomus”, “Afsona”, “Begona”, “Bag'ritosh”, “Zaynab bilan qoling, begim-2”, “Piramida”, “Asal va Shodiya”, “Umid”, “Sodda kuyov”, “Nomus-2”, “Sarvinoz”, “Hojar”, “Azart”, “Tikan”, “O'gay ona”, “Qadar va o'yin”, “Sudya”, “O'jar homilador”, “So'nggi zarba”, “Aka”, “Fotima va Zuhra”, “Piramida-2”, “Botqoq guli”;

“**Milliy**” telekanalida “Zaynab bilan qoling, begim-1”, “Ming bir kecha”, “Yolg'iz qo'ying-2”, “Parixona”, “Boy xonim-1”, “Baxt ovchisi-3: Alfons”, “Qaqnus”, “Badavlat gadoylar”, “Nafs balosi”, “Dushman oila”, “Ayol kuchi”, “Ikkinchi o'ta-1”, “Ikkinchi o'ta-2”, “Yig'lagan qizlar-1”, “Yig'lagan qizlar-2”, “Yig'lagan qizlar-3”, “Boy xonim-2”, “Senziz-3”, “Baxt ovchisi-4: Alfons”;

“**ZO'R TV**” telekanalida “Hijron”, “Hayot-mamot”, “Hayot, ay!””, “Ofitser-55”, “Oydin”, “Psixolog”, “Mavsum”, “Makkora”, “Labirint”, “Ikkinchi turmush”, “Mendirimon, Jaloldin”, “Qora beva”, “Saboq”, “Qadam-2”, “Oq qushlar”, “Taqdiralar iskanjasi”, “Tazarru”, “Zulmatdan qaytib”, “Nastarin”, “Boj badal”;

“**Sevimli**” telekanali orqali “Intiqom alangasi”, “Yongan yuraklar”, “Singlim”, “Qizim”, “Men uchun yasha”, “Gunohlar soyasi” nomlarida milliy seriallar namoyish etilgan. Tabiiyki, seriallarning nomidan ham ular asosan tomoshabinni jalb qilish uchun ishlangani ko'rinib turibdi.

Birgina **“ZO'R TV” telekanalida** efraga berilgan seriallarning 2023-yildagi auditoriya jamlanmasi o'rtacha 51 million 400 ming va 2024-yildagi qamrovi o'rtacha 44 million 750 ming tomoshabinni tashkil etgan. Milliy seriallar telekanallar reytingida muhim o'rinni tutganligi bois, asosan praym vaqtlarda namoyish etiladi.

Mazkur telekanallardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, seriallarni yaratishda asosan tomoshabin talabidan kelib chiqqan holda ish tutiladi. Monitoring tahlillari esa, bugungi o'zbek tomoshabinida milliy mentalitetga asoslangan hayot tarzi, oilaviy qadriyatlar, mojarolar, oilaviy kelishmuvchiliklar, sevgi-muhabbat iztiroblari aks etgan dramatik janrdagi milliy seriallar katta qiziqish uyg'otayotganini ko'rsatmoqda.

Bugun barcha seriallar xususiy telekanallarning o'zlar tomonidan ishlab chiqarilayotganini ta'kidlash zarur. Milliy seriallarni yaratish va tayyor serialni qabul qilish ushbu telekanallar qoshida tashkil etilgan badiiy kengashlarning xulosalariga ko'ra amalga oshiriladi. Demak, har bir serialning saviasiga uning ijodkorlari bilan bir qatorda mana shu badiiy kengash a'zolari ham bevosita mas'uldirl.

O'z serialini (“Taqiqlangan sevgi”) ilk bor 1981-yili Fransiyaga sotganiga bor-yo'g'i 40 yildan oshgan Turkiya hozirga kelib AQShdan keyingi eng ko'p serial sotuvchi ikkinchi mamlakatga aylanganidan xabaringiz bor. Hozirgi vaqtda turk seriallarini 146 mamlakatda 700 milliondan ziyod inson tomosha qiladi va Turkiya seriallar sotuvidan milliardlab dollar daromad qiladi. “Sevgi iztirobi”, “Muhtasham yuz yil”, “Ko'sem”, “Chuqur”, “Ichkarida”, “Istanbullik kelin”, “Gullar iztirobi”, “Malikam, endi qara”, “Abdulhamid”, “Hovli”, “Osiyo”, “Arguvonlar ostida”, “Achchiq yolg'on”, “Zerda”, “Ishkomi uy”, “Kumush”, “Qashqirar makoni”, “Xinali qor”... bu nomlar deyarli har bir o'zbek teletomoshibiniga yaxshi tanishligi O'zbekistondan ham salmoqli mablag' ushbu seriallar uchun sarflangan va sarflanayotganidan dalolat beradi.

“You Tube”, “Netflix” (bugun “Netflix” shunday darajaga ko'tarilgani, undan joy olganining o'ziyoq kinoning saviasini, obro'sini belgilaydi. Tomoshabin uni votib olib ko'radi. Qaniydi, o'zbek tilida ham xuddi shunday internet platformalar yaratilsa. Unda o'zimizda va xorijda yaratilgan eng yaxshi yangi filmlar bilan birga, kino san'atining “oltin fondu”dan o'rinni olgan durdona filmlar ham qo'yilishi mumkin. Odamlar san'atdan pul to'lab bahramand bo'lishni o'rganishi kerak) kabi mashhur internet kanallarida namoyish qilinishi ham turk seriallarining yanada ommalashishiga xizmat qilayotganini ta'kidlash zarur.

Bu o'rinda ayrim seriallar hatto Turkiyaning o'zida ham jiddiy e'tiroz uyg'otayotgani, bir qator seriallar milliy va diniy qadriyatlarga zid deb topilgani uchun jarimaga tortilganini ham aytib o'tish joiz.

Mamlakatimizdagi xususiy telekanallar mas'ullarining fikriga ko'ra, mazmunan pishiq, savia jihatidan yuqori va sifatlari seriallar ishlab chiqarish uchun birinchi navbatda yaxshi ssenarist va rejissyorlarga talab mavjud. Shuningdek, dunyo standartlari darajasidagi seriallar ishlab chiqarish katta mablag' va pavilonlarni talab qiladi. Ayni paytda, xususiy telekanallarning bunday loyihalarni amalga oshirishga kuchi yetmaydi. Agar mana shu muammolr yechim topsa, dunyoga chiqadigan, har taraflama sifatli seriallar ishlab chiqarish mumkin.

Eslasangiz, yaqin paytlargacha o'zbek kinoda “xontaxta film” degan pisaada bor edi. Vaqt o'tishi bilan – yaxshi gumonda bo'laylik, balki tomoshabinning didi o'sib, bu filmlarni qabul qilmayotgandir, balki rejissyorlarimizning o'zlariga talablari oshgandir, balki aktyorlar bunday filmlarda rol o'ynashni xohlashmayotgandir – hozir bunday filmlarni suratga olish kamayganday. Ehtimolki, vaqti kelib teleseriallar ham o'zining to'g'ri o'zangiga tushib olsa, hozirgi ko'rsatayotgan tomoshalari bir tajriba o'laroq tarixda qolsa, degan umidimiz bor.

Va'da vaqti ham yaqin, ey Chustiy, soatga qara.

CHUSTIY

Ma'lumki, jahon kino san'atida har yili yangi yangi filmlar suratga olinadi. Eng mashhur, kutilgan filmlar yurtimizga olib kelinib, aksar hollarda katta shaharlarimizdagi yirik savdo markazlarida qurilgan kinoteatrlarda namoyish qilinadi. Bu yaxshi, albatta. Faqat, har afsuslanarli jihati bor: yangi xorijiy filmlarning deyarli barchasi rus tilida yoki ingliz tilida ruscha subtitrl bilan ekranga qo'yiladi.

Ayrim filmlar o'zbek tiliga tarjima qilib berilganida, milliy tomoshabinlar oqimining sezilarli oshgani kuzatilgan. Masalan, qardosh qirg'iz kinochilari yaratgan “Jannat onalar oyog'i ostida” badiiy filmi tomoshabinlarimiz o'rtasida yaxshigina shov-shuv ko'targaniga sabab mazkur kartinaning katta ekranlarda o'zbek tilida namoyish etilgani bilan ham bog'liq, bilishimizcha, bu kinofilm ijodkorlarining o'zlari tomonidan o'zbek tiliga o'g'irilgan.

Balki, o'zbek tiliga dublyaj qilish ortiqcha harakat va xarajatlarini talab qiladi (filmni suratga olgan kinostudiyaning roziligini olish kerak, dublyaj aktyoriga, studiyaga mablag' topish kerak), juda bo'lmaganda, o'zbek tilida subtitrl berish mumkindir (garchi subtitrl tomoshabinni kinodan chalg'itsa ham).

Eng yaxshi xorijiy filmlarning o'zbek tilida namoyish etilishi aholining ularni ko'proq ko'rishi, ayni paytda, jahon kinosi bilan yaqindan tanishuvi, uni milliy filmlar bilan solishtirib ko'rishi, shu asosda badiiy didi va talabi yuksalishiga xizmat qilgan bo'lar edi. Kino sanoati bilan shug'ullanadigan mutasaddilar shu jihatlarni ham hisobga olgan holda ish tutsalar, maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Bugun biz Uchinchi Renessans paydevorini yaratishni o'zimizga ulug'vor maqsad sifatida belgilab, **“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”** qadam qo'yayotgan ekanmiz, albatta, bu jarayonda kino san'atining ham zamon shiddatiga mos ravishda rivojlanib borishi (ayniqsa, odamlar ongi va dunyoqarashini boshqarishga qaratilgan kurashlar, milliy ma'naviyatga bo'layotgan xatarli xuruj va tahdidlar soha egalaridan nihoyatda ogoh va hushyor ish tutishni, aslo befarq va loqayd bo'lmaslikni talab qilayotgan bir vaziyatda) muhim ahamiyatga ega.

Albert Eynshteyn aytgan: “Hayot – misoli o'yin. Qoidalarni o'zlashtirish va hammadan yaxshi o'ynang”. Bugun ekran qarshisida turgan har bir yurtdoshimizning chet el kinolari va shu orqali begona mafkura ta'siriga tushib qolmasligi uchun ham eng avvalo kinochilarimiz o'zlarini mas'ul va javobgar his qilib, milliy tomoshabin ongini milliy o'zligimiz bilan to'yintirishga intilsalar, ayni muddao bo'lardi.

Darvoqe, bugun 28-fevralmi, O'zbekiston milliy kino san'ati saroyida kechki soat oldida yangi kino qo'yilyapti – “Uch qahramon”. Balki, “shap-shap degandan shaftoli yaxshi”dir? Ketskik, kinoga tushamiz!



YO'QLOV

“Abadiylik tilamayman bu fanodan...”



Bahodir ISO

Farg'onaning qadim qishloqlaridan biri – Dutirda o'zbekning iste'dodli va kamtarin shoiri Bahodir Iso yashab... o'tdi.

U kishi bilan ilk bor ko'rishib, suhbatlashgan inson “Nahotki, el og'ziga tushgan baland she'rlarni shunday sodda odam yozgan bo'lsa?” deb hayratlanishi tayin edi.

Hamma o'zining yaxshi tomonini ko'rsatishga urinadi. Yaxshi odatlarni o'zlashtirib olish mumkin, lekin odam ataylab samimiy bo'la olmaydi. Bahodir Iso tiynati pok, tug'ma, tabiiy yaxshi odam edi. Gaplashganing dardi arib, ruhi yengil tortardi. Uning o'zi ham, so'zi ham samimiy, she'rlari-da toza, nurli, ko'ngilga yaqin edi.

Bahodir Iso 70-yillar o'rtalarida she'riyatga yaraqlab kirib keldi va tabiiyki, unga poytaxtda yashab, ijod qilish taklifi ko'p bora berilgan. Ammo u o'ziga xos o'jar va tanti fe'lga ko'ra, qishloqdoshlari orasida

yashashni afzal bildi. Shoir bir umr o'zini qiynab, boshqalarning ko'nglini avaylab yashadi.

Bahodir Iso zo'r shoir, usta kulol, mohir rassom, cho'ng haykaltarosh edi. Bugun mahallasi hamda qishlog'i maktabida u yaratgan haykaltaroshlik namunalarini ko'rish mumkin.

Ustozning tug'ilgan kunida bir dasta she'rlarini gazetamizda chop etib, quvontirmoqchi edik. Afsus, ulgurmadik. Kutilmaganda Farg'onadan “Bahodir Iso vafot etdi!” degan noxush xabar keldi.

Nachora, taqdir hukmiga ko'nishdan o'zga chora yo'q. Iloyim, ustozning oxirati obod bo'lsin.

Quyida go'zal va haroratli ijodi bilan adabiyot muxlislarining ko'nglida o'ziga haykal qo'yib ketgan iste'dodli shoir Bahodir Isoning bir turkum she'rlarini e'tiboringizga havola qilmoqdamiz.

Oq ayiqqa
ko'nglim juda achishyapti...

Qolarmikin
cheksiz ummon ichra
omon...

U esa muz parchasiga yopishyapti,
Meni shu muz eltadi deb
sohil tomon...

ODAMLAR ICHIDAN ODAM IZLADIM

Uni sizladim men,
Buni sizladim.
Odamlar ichidan odam izladim.
Shaytonlarga uchrab, kuydim, muzladim,
Odamlar ichidan odam izladim...

Bir dardkash qidirdim,
Bir do'st axtardim.
Loqaydlar beparvo tingladi dardim...
Uchratib qolarmen deya bir mardin,
Odamlar ichidan odam izladim...

Qashqirlar quturdi,
Ko'ppaklar hurdi...
Chayonlar chaqay deb izimdan yurdi...
O'rgimchak inini ko'zimga qurdi,
Odamlar ichidan odam izladim...

Menga odam kerak!
Haqiqiy odam!
Topsam, yuragimdan quvilar motam...
Oyoqyalang qo'yib cho'g'larga qadam,
Odamlar ichidan odam izladim...

Ma'yus she'rlarimni tinglaydi kim deb,
Tinglab, yurak-bag'rin tig'laydi kim deb,
Bahodir Isoni ang'laydi kim deb,
Odamlar ichidan odam izladim...

YORISHGAN DIL

“Rasm chizsang, gunohkorsan”,
deya johil ulish berdi,
Tamoman sindirib ruhim,
vujudimga so'lish berdi.
Nihoyat bir mukarram zot
dedi ko'nglimga nur yo'llab:
“Shukr deng Al-Musavvirga,
o'zi sizga ulush berdi”.

DO'ST IZLASANG...

Do'st izlasang, avvalo, o'zing do'st bo'l boshqaga,
Muhtoj kuni ko'makka uzatgin qo'l boshqaga.

Adashgan dam yo'lidan, joy olgin-u ko'nglidan,
Mahkam tutib qo'lidan, ko'rsatgin yo'l boshqaga.

G'arib bo'lsa, tengi bo'l, yoqasi yo yengi bo'l,
Har ishingning o'ngi bo'l, bo'lmagin so'l boshqaga.

Mehr to'ldir ko'zingga, sehr to'ldir so'zingga,
Gulzor tanlab o'zingga, ko'rsatma cho'l boshqaga.

Do'stlikdan do'stlik paydo, ey sen Bahodir Iso,
Do'st izlasang, avvalo, o'zing do'st bo'l boshqaga.

ILTIMOS

Yuragimni ochib ko'ringlar,
Yo unga tig' sanchib ko'ringlar –
Qonlarimni yerga ayamay,
sochib,
sochib ko'ringlar –
Yerda
Qatra-qatra qonimdan
Qizg'aldoqlar o'sib chiqadi.
Ming-ming bo'lak bo'lgan jonimdan
Vatan degan yozuv chiqadi...

Ko'zingma ko'z tikib ko'ringlar,
Yo qo'shbizgiz tiqib ko'ringlar –
Parpiragan yog'du chiqadi...
Keyin...
Yana o'qib ko'ringlar –
O'sha
duv-duv yog'du ichra ham
Vatan degan yozuv chiqadi!

...Qilmasangiz bu ishni udda,
Iltimos, ko'p sayramang unda!

UMR

Izlab topolmaysan,
chiranna bekor,
Ilohiy Xattotning
xatidan
xato.
U
senga
bu xatni
bitmaydi takror,
Bu tortiqni
qayta
etmaydi
ato.
Sen uchun bitilgan bitik –
mukammal,
Nuqson yo'q
sen uchun o'qilgan
nutqda.
Bir kun
kelishidan
sen qo'rqqan ajal –
Joyiga qo'yilgan
Chiroyli
nuqta.

YAXSHILAR BOR, YAXSHIYAM

Bu beshafqat dunyoda,
Yaxshilar bor, yaxshiyam.
Mehr qahat dunyoda
Yaxshilar bor, yaxshiyam.

Oyoqosti diyonat,
Yaqinmi-yo qiyomat?
Go'daklarga himoyat,
Yaxshilar bor, yaxshiyam.

To'kilsayam yerga qon,
Uzilib tushmas osmon.
Baloga balogardon
Yaxshilar bor, yaxshiyam.

Balki xon zamonida,
Tobi yo'q vijdonida.
Bu jahon ayvonida
Yaxshilar bor, yaxshiyam.

Mard ishonar ahdiga,
Gado rizo naqdiga.
Bahodirning baxtiga
Yaxshilar bor, yaxshiyam.

BO'LGANIM SHU...

Meni yaxshi ko'rganlar ko'p, to'g'ri, biroq,
Jini suymay yurganlar ham undan ko'proq.

Demak, yomon odamman deb kuyunmay ham,
Juda yaxshi odamman deb suyunmay ham.

Taroziga qo'yilganda faqat amal,
Yaxshiligim og'ir kelsa bo'ldi sal-pal...

Agar erta tushmaganda boshga kallik,
Da'vo qilsam bo'lar edi mukammalilik...

Hay, mayli-da, yaxshimanmi yo yomonman,
Men ham sizdek Haq yaratgan bir insonman.

Abadiylik tilamayman bu fanodan,
Xafamasman hakim Luqmon yo Sinodan.

Tushgach umr kitobimga so'nggi nuqta,
Hammangizni tark etaman xuddi yo'qday...

Ha, shunaqa,
Mendan sira hadik olmag...

Gap – shu.
Boring,
Endi siz ham,
Yo'ldan qolmang!

HALI O'LMAGAN ODAM

“Boshiga tosh bilan bir ursam...”,
deb o'ylaydi kimdir men haqimda.
“Boshini bag'rimga bossam...”
deb o'ylaydi kimdir men haqimda.

Men esa
ko'tarib yuraman
o'sha –
ming marta tosh tegib yorilgan,
issiq bag'irlarda dimiqqan,
hamma uchun qiziq
boshimni...

OQ AYIQ

Ummon...
Ummon...
Quloqlari
cheksiz yoyiq...
Bahor kelib,
Eriyapti uning muzi...
Ummonning qoq o'rtasida
bir oq ayiq
Holsiz suzib borayotir
yolg'iz o'zi...
Tirikchilik
sho'rlikni shu holga solgan –
Baliqmi yo
bir baloni kelgan ko'zlab.
Sohil esa
ancha olis,
olis qolgan...
Toparmikin
endi uni
qayta izlab...
Eh, oq ayiq,
Uh, oq ayiq...
Oh, oq ayiq...
Ketmasaydi
adog'i yo'q suvda o'lib...
Go'l bo'lmasa,
Sohillarni badar qo'yib,
Muzga ishonch bog'laydimi
kelib-kelib?

Boshlanishi 1-sahifada

Onam rahmatlik o'sha davrlarda maktab direktori bo'lib ishlardi. Gap Ogahiy merosi va uning qabri haqida bordi.

Mehmon Ogahiy mozorini ziyorat qilish uchun Shayx Mavlon bobo qabristoniga bordi. Men unga yo'l boshladim. Hech kim, hatto, qishloq nuroniyarlari ham ulug' shoimning qabirini ko'rsata olmadi. Shundan biroq vaqt o'tib, respublika matbuotida jurnalist Fozil Zohidovning “Changalzor oralab”, degan tanqidiy felyetoni bosilib chiqdi.

1959-yil kuzida G'afur G'ulom, Ibrohim Mo'minov, Qori Niyoziy, Zulfiya, Uyg'un, Ayyomiy, Subutoy Dolimov, Egam Rahim kabi shoir, olimlar kelib qishlog'imizda katta tadbir o'tkazishdi. Ma'ruzalar, g'azallar o'qildi, so'ng konsert boshlandi. Haliyam ko'z o'ngimdan ketmaydi, o'zbekning tanti shoiri G'afur G'ulom sozanda hofizni to'xtatib:

– Ogahiydan ayt, – dedi.
– Ogahiydan bilmasang, og'a, – dedi haligi hofiz kalovlanib.
– Ogahiydan bilmasang, ko'tar dang'ir-dung'iringni, – dedi G'afur G'ulom.

Shundan so'ng zudlik bilan Bola baxshi Abdullayevni topib kelishdi. Bola baxshi “Feruz I”, “Feruz II”, “Suvora”dan, “Oshiq g'arib va Shohsanam” dostonlaridan kuylab berdi. To'g'risi, ana shundagina biz Ogahiy to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'ldik.

1980-yillar boshida xutorlarni tugatish, paxta plantatsiyalarini

OGAHIYNING “QO'LINI TUTGAN” OQSOQQOL



kengaytirish, bog'-rog'larni kamaytirish siyosati boshlandi. Hozirgi 32 gektarlik Ogahiy bog'-muzeyining o'rni aholi tarqoq yashaydigan hududlardan iborat bo'lgan. Eng muhimi, bu yerda 50–60 tup balx tuti, tarixiy kungurali joylar bor edi. Qariyalarimiz eski uyalar, tutlarni yiqib, hamma yoqni tekislab, paxta ekmoqchiligimizni bilib, bizni bu yo'ldan qaytarish uchun idoraga kelishdi: “Bu tutlar orasidagi bir tupini Ogahiy bobomiz o'z qo'llari bilan ekan, uni kelgusi avlodlarga asrab-avaylab yetkazish zarur”.

Keksalarning maslahatiga ko'ra, tutlarga qo'l tekizmadik. Boshqa yerlarni tekislab, tobga keltirib sug'ordik va atigi bir gektar yerni bog'

uchun ajratdik. 1982-yil yoz oylarida “Xorazm haqiqati” gazetasi muharriri, shoir Erkin Samandar obkomning vakili bo'lib keldi. Birga dala aylandik. Yo'limiz Ogahiy ekan tut va biz boshlagan “xufiya bog'” ustidan tushib qoldi. Men bo'lg'usi bog' va o'sha tabarruz oq tutni bajonidil ko'rsatdim. Ko'zlariga sevinch yoshlari kelgan Erkin aka biroq o'ylanib turdi-da: “Agar qarshilik qilmasangiz, bu tut tevaragini Ogahiy bog'i deb e'lon qilsak. Ehtimol, bobomiz orzu qilgan bir bog' – memorial muzey bo'lar”, dedi.

Men bu taklifga rozi bo'lar edimku, ammo “paxta dalasi hisobiga bog' yaratibdi” degan sovetcha malomatga qolmasnikanmiz, dedim.
Shunda Erkin aka yana o'ylanib qoldilar...
Oradan ikki yil o'tgach, biz boshlagan bu xayrli ish raykomning birinchi kotibi Madamin Matkarimovning qulog'iga yetib boribdi. U bir kuni kolxozga keldi. Dala va bog'ni sinchiklab aylanib chiqdi va menga qarab:
– Otanazar, nega bu yerni rejaga kiritmasdan bog' qildingiz? – deb qoldi.
– Madamin Matkarimovich, shu bir tup oq tutni Ogahiy bobomiz o'z qo'llari bilan ekan ekan. Biz uni kelgusi avlodlarga yodgorlik sifatida qoldirishni niyat qildik.

U kishi jilmayib qo'ydi va jiddiy tikilganicha:
– Mayli, qilar ishni qilib qo'yib, biroq endi bu yog'iga nihoyatda ehtiyot bo'ling. Ishqilib, bu xayrli ishlaringiz yomon quloqlarga yetib borib, ikkalamizni ham qiynashmasin-da, – dedi.
1986-yilga kelib mamlakatda demokratiya davri boshlandi. O'shanda bog'ni “Ogahiy bog'i” deb e'lon qildik. 1992-yilda bog' 24 gektarga, keyinchalik jami maydoni 32 gektargacha kengaydi. 1989-yili shu bog'da Ogahiy uy-muzeyi qurilib, shoir haykali o'rnatildi. Uning tevaragiga turli mevali og'ochlar o'tqazib, gulzor tashkil etdik. Bunday xayrli ishlarda Erkin Samandar, Otaxon Ollaberganov, To'raboy Quryozov, Renat Ahmedov, Erkin Rahmonov, Rahima Xudoyberganova, Daryomurod Xudoyberganov kabi rahbar va ijodkorlarning xizmati katta bo'ldi.

– Yoshullik, savoldan uzdoqlashib ketmayapmizmi? Uzi-da, endi...
– E, esimda turibdi. “Ogahiy hazratlarini qo'lini ushlashim” mana bundoq bo'lgan. 1989-yilning ilk bahorida Ogahiy yubileyiga tayyorgarlik boshlanib ketdi. Hazratning qabri qaysi ekan, degan savol menga tinchlik bermasdi. Hali aytib o'tdim-ku,

respublika matbuotida chiqqan tanqidlardan so'ng ham u kishining qabri aniqlanmay qolgan edi-da. Qishloq qariyalarini yig'ib maslahat soldim. Yoshi 70-80 dan oshgan qariyalar “Ogahiyning xilxonasi 7 ta tutdan yasalgan quti ichida emish. O'zi “Mozorida hazrati Munisning qabri yonida bo'lsin!” deb vasiyat qilgan ekan”, deb aytishdi. Shu kuni peshin namozidan so'ng qabristonga borib, xarobaga aylanayozgan qabrni ochdik. Chindan ham qabrda tutdan yasalgan sandiq bor ekan.
Asta ochdik, unda odam suyaklari kishi gavadasini eslatib yotardi. Uch karra Qur'on o'qitdik va allomaning o'lmas asarlar bitgan muborak kaft suyaklarini ushlab tavof etdim.
To'g'risini aytsam, Ogahiydek buyuk zotning “qo'li”ni ushlaganimga suyunib, ko'zimda yosh qalqidi. Keyin esa belni mahkam bog'lab, el manfaati yo'lida yanada yaxshiroq ishlash, kurashish va yashashga o'tlandim.

Endilikda shoirlar Munis va Ogahiy yotgan Shayx Mavlon bobo qabristoni fayzli ziyoratgohga aylangan. Ikki shoir nomi bilan ataluvchi bog'lar esa biri-biriga ohangdosh jaranglaydi. Ayniqsa, Ogahiy bog'ining shonshuhrati o'zgacha. Bir vaqtlar Erkin Samandar:
Nimalar bo'lmaydi,
deysiz hayotda
Ogahiy tut ekdi bog'i Qiyotda...
– deb boshlanuvchi she'r ham yozgandi. Bog'ning g'arb tomonida davolanish maskani, Qosimbod shaharchasi, orqa va kun chiqish tomonlarida aholi zich yashaydigan mahallalar. Bog' xalq sayillari, Navro'z va Mustaqillik bayrami, Ogahiy tavalludi kunlarida san'at va adabiyot ixlosmandlari, yosh-yalanglar bilan to'lib ketadi. Qishlog'imizdagi har bir xonadonda Ogahiy g'azallari, qo'shiqlari yangraydi, g'azal va bayozlari mutolaa qilinadi. Maktablarda Munis va Ogahiyga, Pahlavon Mahmud va Jaloliddin Manguberdi yubileylariga bag'ishlangan tadbirlar, mushoira, g'azalxonlik kechalari bo'lib o'tadi...


Otanazar og'a bilan suhbatimiz qizg'in bo'ldi. Bu ibratli ishlar uning xayrlik amallari dengizidan bir tomchi, xolos. O'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan Ogahiy hazratlari mangu qo'nim topgan qadamjoni obod qilishdek savobli ishlari qahramonimizning ezgu amallari jamlangan marjonidagi eng yorqin dur-u javohirlardandur.

Boltaboy Muhammad QURBON



MILLAT FIDOYLARI

QOG'OZLARDA QOLGAN OH-U FARYODLAR



“Ilm o'rganing, zero u faqirlikda davlat, boylikda ziynatdir” degan hikmat bor. Jadidlar ilm bilan ziynatlangan, ta'lim-tarbiyani hayot-mamot masalasi deb bilgan orif shaxslar edi. Bu safda savdogar-tojirlar ham bor ediki, ularning ko'zlovi-murodi faqatgina aqcha emas edi. Balki orttirilgan mablag'ni el-yurtini xat-savodli qilish uchun vosita deb sanashardi. Tijoratning yana bir afzalligi shuki, savdo taqozosi bilan o'zga yurtlarni kezib, boshqa xalqlar turmushi, madaniyati va ildidan boxabar bo'ladi. Ayni paytda dunyo ko'rgan odamda qiyosiy tahlil imkoni paydo bo'ladi va u o'z millatini taraqqiy ettirish yo'riqlarini anglab yetadi. O'z davrining elkezar tijoratchisi Abdullajon Yo'ldoshqoriyev ana shunday taqdir egalari biri edi.

1884-yili Namangan shahrida savdogar oilasida tug'ilgan, bolalikdanda

savdo-sotiq ishlarida pishgan Abdullajon qalbida faqat shaxsiy manfaat emas, balki millat kelajagi uchun qayg'urish hissi bor edi. Shu tuyg'ular undovi bilan u 1912-yili Turkiyada yuzaga kelgan uyg'onish harakatiga qiziqib, Istanbulga safar qiladi va u yerdagi turli siyosiy jarayonlar bilan bevosita tanishadi. Keyinchalik ona yurtiga qaytgan qahramonimiz Namanganda savdo bilan bir qatorda, Istanbul xulosasi asosida jadidlar harakatida faol ishtirok etadi.

Dunyo o'zgarayotgan, taraqqiyot shiddat bilan oldinga yurayotgan bir paytda Turkiston eski an'analar changalida qolib ketayotgandi. Abdullajon ham boshqa jadidlar singari bu holga befarq qarab turolmasdi. U ham oydinlar qatorida turib “ilmsiz kelajak yo'q” deya maktablarni rivojlantirishga bel bog'ladi. Taraqqiyotga yo'l faqat ilm-u fan bilan ochilishiga ishongan, bunga ko'zi yetgan, ammo natijasini ko'rishga umri yetmagan qahramonimiz xalq xizmatiga astoydil kamabasta bo'lib, bolalar jaholat zulmatida qolib ketmasligi uchun hayot-mamot kurashiga kirdi. Ming mashaqqat bilan bolalar uchun savodxonlik kitoblari chop etilishiga bosh-qosh bo'ldi. Ilmga chanoq o'quvchilar bu kitoblarni qo'lma-qo'l, ishtiyok bilan mutolaa qilayotgani johil xurofotchilar hamda chor mulozimlariga yoqmadi. Chunki ular bilimli avlod shakllanishidan, bolalarning ilm-u ma'rifati bo'lishidan rosmana cho'chirdi. Ongli odam zulmga bo'yin egmasligi ularga kunday ayon edi. “Nega bu maktablarni davlat emas, balki boylar moliyalashtiradi?” deyishdi mustamlakachilar jig'ibiyron bo'lib. “Xudosiz boyvachchalari yangi usul maktabi ochib, bolalarimizning fikrini kafforat tomon og'diryapti!” deyishdi qadimchilar. Alaloqibat “Bu maktablar bizning mafkuramizga zid!” deb hukm chiqarildi.

Bunday ziddiyatlar ichida kun sayin toblanib borayotgan Abdullajon Yo'ldoshqoriyev 1917-yildagi fevral inqilobidan keyin Turkistonda yuzaga kelgan milliy harakatlardan biri – “Jamiyati Islomiy” tashkilotiga a'zo bo'ladi. Bu tashkilot jadidlar tomonidan tuzilib, maqsadi islom dinini xurofotdan tozalash va xalqni jahoniy tamaddunga yuzlangan milliy ruhda tarbiyalash edi. Abdullajon bu harakatga katta kuch va mablag' sarflab, bir qator jadid maktablarini qo'llab-quvvatlash, tabiiyki, “ilonning dumini bosib qo'yadi”. Unga nisbatan mahalliy boshqaruv va iqtidorga kelgan bolsheviklar tomonidan tazyiq va ta'qib kundan kunga avj olib boradi.

Ozodlik qanday saodat ekanini teran anglagan qahramonimiz Namangan va Qo'qondagi milliy harakatlarga rahbarlik qiladi, shuningdek, Turkiston muxtoriyatining tuzilishida ham faol qatnashadi.

Abdullajon Yo'ldoshqoriyev Muxtoriyatni kuchli milliy armiyagina qutqarib qolishi mumkinligini, buning uchun esa moddiy ta'minot zarurligini uqtirib, mahalliy zodagonlarga “harbiyat uchun xayriya” so'rab murojaat qiladi. Ammo kaltabin mulkdorlar bu tashabbusni qo'llab-quvvatlamaydi. Natija esa bugun hammamizga ma'lum.

20-yillardan keyin sovetlar milliy ozodlik harakatini asta-sekin bostirib, shu bilan birga hurfikr millat peshqadamlarining ovozlari bo'g'ib, imkoniyatlarini cheklay boshladi. Shunday tahlil sharoitda ham o'z e'tiqodidan voz kechmagan qahramonimiz qayerda va qaysi vazifada faoliyat yuritisa ham, yurt ozodligi, millat ravnaqi va ilm-fan rivoji yo'lida qat'iy kurash olib bordi.

Albatta, bunday fidoyi shaxs sovet hukumati qoliplariga sig'mas, u totalitar tuzumning ashaddiy dushmani sifatida

baholanardi. Shu tariqa 1937-yil 12-oktyabr kuni sovet hukumatinin repressiyalar to'liqini Abdullajon Yo'ldoshqoriyev xonadonini ham o'z domiga tortdi. Tergov ishida u bir qator millatchi tashkilotlarga – “Jamoati tashkilot” va “Milliy ittihad”ga a'zo bo'lganlikda, Namangandagi ishchi otryadlarini qurolsizlantirishda tashkilotchilik qilganlikda aybdor deb topiladi.

Hatto 1913-yili ukasini til o'rganish uchun Turkiyaga yuborgani ham unga qarshi dalil sifatida ko'rsatiladi. Holbuki, bu sovet hukumatinin ag'darish harakati emas, balki bor-yo'g'i ilmga intilish ishtiyoki edi.


1937-yil 21-oktyabrda Abdullajon Yo'ldoshqoriyev rasman jinoyatchi deb topiladi va NKVD tomonidan Namangan turmasiga tashlanadi.

Bu fojia uning turmush o'rtog'i Fotimaxon Qoriyevaga, ayniqsa qattiq zarba bo'ldi. Qatag'on qopqoniga tushgan ko'plab ayollar erining begunohligini isbotlash uchun turli idoralarga, Stalin nomiga, NKVDga, Markaziy Komitetga umidlanib murojaatnoma yozishga tushgan bir damlar edi. “Erim xalq dushmani emas, u faqat ilm-ma'rifatga xizmat qilgan!”, “Uch bolam bilan och qoldim, iltimos, erimni qaytaring!”, “Yo'qchilikdan sillamiz quridi, bolalarim och...”, “Nechun biz jazolanaymiz?” kabi oh-u faryodlar arxiv qog'ozlarida muhrlanib qolgan. Yomoni shu, faqat qog'ozlardagina qolgan...

Ilm – olov. Uni o'chirish mumkin, ammo butunlay yo'q qilib bo'lmaydi. Millat turgan cho'g'ni qayta alanga oldiradigan olovqalbar borki, ular yoqqan mash'ala ozodlik yo'lini ko'rsatib, xalqni ezgulikka chorlayveradi...

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Abduvohid qori Abdurauf qori o'g'li – 1856-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Toshkentdagi Kesakqo'rg'on va Buxorodagi Ernarbiy madrasalarida ta'lim olgan. Millati o'zbek. Arab, fors va rus tillarini yaxshi bilgan. Tula guberniyasida 5 yil surgunda bo'lgan. 1913-yilning mayidan Toshkentdagi Abdumavlonboy masjidi imomi bo'lgan. Fevral inqilobidan so'ng taraqqiyparvarlar, jadidlarning “Sho'royi islomiy” jamiyati asoschilaridan biri bo'lgan. Xorazm va Buxorodagi inqilobiy jarayonda ishtirok etgan. Turkiston ASSR Oliy sudi hay'ati a'zosi, “Mahkamayi shariya”ning raisi bo'lgan. Shirinqudud mahalla masjidida imomlik qilgan. “Musulmon ruhoiylari ishi” ayblovi bilan 1937-yil 9-avgustda Toshkentda qamoqqa olingan. 1938-yil 12-yanvarda 82 yoshida Toshkent qamoqxonasida vafot etgan.

Nazir Sholikorov – 1881-yili Xiva shahrida savdogar oilasida tug'ilgan. Madrasada o'qigan, “Jamiyati xayriya”ning a'zosi bo'lgan. “Yosh xivliklar” partiyasini tuzishda ishtirok etgan. 1920-yildan ichki ishlar noziri lavozimida faoliyat ko'rsatgan. Milliy idoralarda xizmat qilgan. 1937-yil 16-avgustda Xiva shahrida qamoqqa olingan. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining 1938-yil 5-oktyabrdagi sayyor sessiyasida Nazir Sholikorovga otuv hukmi e'lon qilingan. Jazo o'sha kuni kechasi Toshkentdagi qatlgohda ijro etilgan. 1958-yil 4-dekabrda SSSR Oliy Sudi harbiy kollegiyasi tomonidan reabilitatsiya qilingan.

Xudoybergan Devonov – 1878-yili Xivada tug'ilgan. Yoshligidan surat olishga qiziqqan. Volga bo'yidan Xorazmga kelib qolgan nemis suratchisi Vilgelm Pennerga shogird tushgan. Moskva va Peterburgdan Xorazmga yangi gramfon, fotoapparat, kinokamera va boshqa uskunalar olib kelgan. Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Davlat nazorati noziri, Xorijiy ishlar noziri, Moliya noziri, Xorazm okrugi moliya bo'limi boshlig'i (1925-1926), “Inqilob quyoshi” va “Uzbekistanская правда” gazetalariining fotomuxbiri bo'lib ishlagan. 1937-yil 7-avgustda Yangi Urganch shahrida qamoqqa olingan. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining Toshkentda bo'lib o'tgan sayyor sessiyasida Xudoybergan Devonovga otuv hukmi o'qilgan. Hukm o'sha kuniyoq ijro etilgan. Xudoybergan Devonov 1959-yil 25-iyunda reabilitatsiya qilingan.

Hoji Muin Shukurullo o'g'li – 1883-yili Samarqandda tavallud topgan. Ma'rifatparvar, jurnalist, shoir va dramaturg bo'lgan. Samarqandda 1903-yili dastlabki jadid maktabini ochgan. “Rahnamoyi savod” alifbosi darsligini yozgan. “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnalida ishlagan. Samarqandda “Hurriyat”, “Mehnatkashlar tovu-shi”, “Zarafshon” gazetalari, “Mashrab”, “Mushfiqiy” jurnallari va boshqa matbuot nashrlarida faoliyat olib borgan. 1929–1932-yillari Sibirida surgunda bo'lgan. Surgundan qaytgach, nashriyot va gazetalarda muharrirlik qilgan. 1938-yil 24-yanvarda Samarqandda hibsga olinib, 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilingan. Jazoni o'tash chog'ida Perm viloyati Solikamsk shahrida 1942-yil 27-iyunda 59 yoshida vafot etgan.

Muhammadxon (Muhammadjon qori) Poshshoxo'jayev – 1885-yili Toshkent shahridagi Zanjirli mahallasida tavallud topgan. Avval rustuzem maktabi, keyin madrasada tahsil olgan. 1909-yildan Munavvar qori Abdurashidxonov rahbarligidagi Toshkent oydinlari safida bo'lgan. “Jamiyati imdodiya” xayriya jamiyati, “Turon”, “Sanoyi Nafisa ittifoqi” teatr guruhlarining tashkilotchilaridan biri bo'lgan. “Sho'royi Islomiy” jamiyatining faol a'zosi, Toshkent Eski shahar partiya komiteti raisi, Eski Marg'ilon revolyutsion komiteti raisi, Toshkent pillachilik korxonasi boshlig'i, O'zbekiston SSR Ipakchilik idorasi taftishchisi lavozimlarida ishlagan. 1937-yil 31-avgust kuni Toshkentda NKVD tomonidan qamoqqa olinib, 14-oktyabrda otuv hukmi o'qilgan. Hukm o'sha kuniyoq ijro etilgan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi.

(Davomi kelgusi sonda).

TARIX VA TAQDIR

“QORONG'U UFQDAGI TONG YULDUZI”

Tarixdan ma'lum, Chor Rossiyasi dastlab Qrim, Tatariston, Kavkazorti kabi musulmon o'lkalarini bosib oldi. XIX asrning uchinchi choragiga kelib Qo'qon xonligi mahv etilib, Buxoro amirligi va Xiva xonligi amalda tobe davlatga aylantirildi. Bu sharmandali mag'lubiyatga xonliklarning bir-biri bilan ochiqdan ochiq ixtilofi, iqtisodiy, siyosiy, hududiy masalalarda ziddiyatlari, ilm-fan, taraqqiyot bobidagi oqsqliklari sabab bo'ldi.

Aslan, bunday fojialar ozodlik uchun kurashchan qahramonlar tug'ilishida eng katta omillardan biri bo'lgan. Xususan, O'rta Osiyoda Rossiya imperiyasi mustamlakasidan ozod bo'lish g'oyasining fidoyi jonkuyarlari – jadidlar o'zlarining siyosiy qarashlari orqali adolatli fuqarolik jamiyati qurish g'oyalari bilan maydonga chiqqan. Ular jamiyatda adolat o'rnatish uchun birinchi navbatda istiqloлга erishish muhim ekanini o'z harakatlari – chiqishlari, yozgan asarlari va hatto o'limni bo'yiniga olganliklari bilan ham anglatishga uringan.

...Buxoroda ham jadidlik murakkab va mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. Jadidlikning bu ko'hna zaminda vujudga kelishida XX asr boshlarida Rossiya, Eron, Turkiyada kechgan inqilobiy harakatlar, amirlikdagi ma'rifatparvarlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati muhim ahamiyat kasb etgan. Bunda umumbashariy g'oyalari bilan dong taratgan ulug' siymo, olim va davlat arbobi Ahmad Donish shaxsini yodga olish o'rindir.

Bu nom ko'pchiligimizga tanish, albatta. O'z zamonasida u “Ahmad Kalla”, “Ahmad maxdum”, “Muhandis” nomlari bilan ham dovrg' qozongan. Biroq uning Buxoroda ilmiy-adabiy tafakkur yangilanishiga ta'siri, bu borada olib borgan amaliy sa'y-harakatlaridan to'la xabardormiz, deyolmaymiz.

Ahmad Donish nafaqat Buxoroda, balki O'rta Osiyoda yangi zamon



ma'rifiy harakatining yetakchilaridan biri sanaladi. Buxoro madrasalari mudarrisleri, talabalari bu olimni g'oyat hurmat qilishar, Sadridin Ayniy ta'biri bilan aytganda, u “Buxoro amirligining qorong'u ufqidagi tong yulduzi” edi.

Ahmad Donish 1827-yili Buxoroda shofirkonlik mudarris oilasida tug'ilgan. Dastlab shu yerdagi maktab va madrasalarda tahsil oldi. Madrasada egallagan bilimlari bilan kifoyalanmay, riyoziyot, falakiyot, adabiyot, musiqa, me'morchilik, tarix va falsafani puxta o'zlashtirishga bel bog'laydi. Sharq shoirlari va mutafakkirlari asarlarini ko'p o'qib-o'rganib Ibn Sino, Umar Hayyom, Navoiy, Fuzuliy, Bedil asarlariga o'rtoq tutinadi. Buni olimning o'z risolalarida ularning fikriga ko'p to'xtalganidan ham anglash mumkin.

Ahmad Donish Buxoro amiri elchilari safida uch bor (1857, 1869 va 1874-yillarda) Peterburgda bo'lib, Ovro'po madaniyati, ilm-fan sohasidagi yutuqlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'lgan va safar chog'ida ko'rgan-kechirganlari xususida maxsus risola ham bitgan. O'sha paytlari Rossiyaning “Голос”, “Новое время” gazetalariida uning hurfikri, bilim-saviyasi, siyosatdonligini xo'p ta'riflab chiqishlar qilingan.

Ahmad Donish o'z ma'rifati, qomusiy ilmi bilan rus podshosi xizmatidagi yozuvchi-olimlarning-da hurmatini qozongan va hatto imperator Aleksandr II ning ham nazariga tushgan edi. Tabiiyki, safarlar mutafakkir dunyoqarashiga ulkan ta'sir o'tkazib, olimning Buxoroda mavjud tartiblarni isloh qilish loyihasini olg'a surishiga turki beradi. Bu esa Amir Muzaffariddinga xush kelmay, uning noroziligiga sabab bo'ladi. Amir o'sha zahotiyot olimni hududdan qozqlashtirishga urinib, uni Huzarga qo'zi etib jo'natadi. Amir vafotidan so'nggina u Buxoroga qaytishga muvaffaq bo'ladi.

Ahmad Donishdan bizga betakror ilmiy-adabiy meros qoldi. Adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Haqqul “Ahmad Kalla” nomli essesinde ta'kidlaganidek, “XIX asrdagi Buxoro sharoitida Ahmad Donishdek olim, adib, mutafakkir va davlat arbobi bo'lgan kamol topishi hayratlanarli hol... Ilm-fanning sayozlashuvi, ma'rifat bo'stonlarining qovjirashi, hurriyat nurlarining so'nishi Buxoroning tinka-madorini quritgan edi. Davlat va hokimiyat Buxoroyi sharif ahli xohish-irodasiga zid bo'lgan aqida va orzu-havaslariga tobe edi...”

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida Ahmad Donishning 16 ta risola va yana bir qancha she'rleri kiritilgan tazkiralari, G'azzoliy, Jomiy asarlaridan ko'chirgan qo'lyozma nusxalari saqlanadi. Bu asarlarning aksari asl nusxa bo'lib, muallifning o'zi tomonidan bitilgan.

Ahmad Donish shaxsini tanishga xizmat qiladigan asosiy asar “Navodir ulvaqoye” – “Nodir voqealar”dir. Asarning “nodir” bo'lib pishib yetilishi o'n besh yil davomida (1870–1885) yozilgani bilan ham bog'liq. Unda olim turli (ona va farzand munosabatlari, safar qilishning foydalari, vaqt qadri, kasb-kor, yer tuzilishi, ma'danlar va h.k.) masalalarga bobma-bob munosabat bildiradi. Shu nuqtayi nazardan “Nodir voqealar”

tarixiy, falsafiy, memuar asar sifatida e'tirof etiladi.

Asarda, xususan, taraqqiyotga g'ov bo'lib qolgan feodal ijtimoiy-siyosiy tuzum, tartib va munosabatlar tanqid ostiga olinadi. Qolaversa, muallif Buxoro xonligini chet mamlakatlar bilan taqqoslab, o'z vatanining iqtisodiy va madaniy jihatdan orqada qolganligini ko'rsatib beradi. Bu qoloqlikdan qutulish uchun ijtimoiy-siyosiy tuzumda islohotlar qilish zarurligini bot-bot uqtiradi.

Buxoro amirligining so'nggi qozikaloni, “Navodiri Ziyoiya” tazkirasini muallifi, ma'rifatparvar Sadri Ziyoning e'tiroficha, “Ahmad Donish butun umrini amir, vazir, qozikalon va boshqa amaldorlarni kelajakdan ogoh etish, oddiy odamlarga zulm o'tkazmaslikka chorlash, ularni zo'ravonlik, berahmlikdan qaytarishdek ezgu ishlarga sarflagan, biroq jamiyat hayotida biron bir o'zgarish ko'rmagan”.

Ahmad Donish bunday turg'unliklarga qaramay, o'z vatani rivoji uchun tinmay kurashdi, xalqni ilm-ma'rifatga chorlashdan bir zum to'xtamadi. “Odam yaratilgandan so'ng uning tuganmas baxti ilm va ma'rifatda bo'ladi. Uning ixtiyori o'zida bo'lsa, ilmsizlik va dangasalikka bo'yin egmasin, chunki ilm va ma'rifat ruhning istagi bo'lib, rohatparastlik va dangasalik nafsning tilagidir”, deydi u.

Ahmad Donish 1897-yili vafot etdi. Uning ilmiy-adabiy merosi ko'pchilik tadqiq etganiga qaramay, aytish mumkinki, hali ochilmagan qo'riq hisoblanadi. Uning biz o'qib, uqib olishimiz kerak bo'lgan ibratlari, hikmatlari bisyor. Donish so'zi bilan aytganda: “Kishi o'z vatanini himoya qilsagina, o'z xalqi bilan birga bo'lsagina, u har doim barhayotdir”. Zotan, Donishning donishligi ham shunda edi.

Bahodir MA'MUROV,
Buxoro davlat pedagogika instituti
rektori,
pedagogika fanlari doktori,
professor



YANGI LUG'AT

HAJV

Maktubim javob istab...

Ushbu yozayotgan xatim tez va oz kunlar ichida yetib borib ma'lum bo'lg'aykim, o'shal shahri azimda o'ynab-kulib yurgan aziz noibimiz, J.G'.Biyronovga, deb bilgaymiz. Biz, Sizni suyib tanlagan saylovchilaringiz o'shal o'zingiz bilgan go'sha – hamisha ko'hna va navqiron Cho'rindi mavzeyida amal-taqal uchma-uch qilib, bu g'animat hayot ne'matlaridan bahramand bo'lmoq ilinjida yashab turibmiz.

Qadrli J.G'.Biyronov! Siz bilan ilk uchrasuvimiz yodingizda bo'lsa kerak. Qaroqchitil MFYda o'tkazilgan nomzodlar bilan muloqot tadbirida men zaling qoq o'rtasida tovuspat jemperda boshyalang o'tirgan edim. Nomzodlar orasidan aynan sizni ajratib olganing sababi, o'zingiz ham bir yarim soatlik maylis davomida nuqul men tarafga qarab ma'ruza urdingiz. Ana shu otashin nutqingiz meni sobiq adabiyot o'qituvchisi sifatida benihoyatda hayajonlantirib tashladi. Ayniqsa, "Men sizni kelajagingizni o'ylayman, siz baxtli yashashingizni xohlayman va aynan sizning Saodatigiz uchun bir umr dastur asosida kurashaman!" deb ont ichganingiz meni tosh yuragimni g'ilt-g'ilt eritib tashlagandi. Qolaversa, o'rtancha qizim Saodatni ham tilga olganingiz meni yolg'iz ona sifatida o'tayam umidvorlikka soldi.

Yuragimni tosh deb ataganim sizga g'alati tuyilayotgandir, Javlon aka. Balki dilbandimni otigacha aniqlab, turish-turmushimgacha astoydil qiziqqan sizdek nozikta'ab adibning sinchkov nazari mening o'jarligim, unchamunchasiga darrovda ko'nib ketaveradigan kapalaktabiatlardan emasligimni aniq-tiniq ilg'ab olgandir.

Ha, hayot meni qayta-qayta sinovlarga soldi, har xil va turfa maqsadli insonlarga yo'liqtirdi. Ammo men o'zligimda sobit qoldim, bir kuni men Uni toparman degan orzuda yashadim. To'g'ri, birinchi turmushim ota-onamning majburiyati asosida ro'y berdi. Men esimni tanitmanas, endigina yigirma besh bahorni qarshi olayotgan navnihol chog'imda o'zimdanda naq ikki yosh katta bo'lgan fizika o'qituvchisiga uzatib yuborishdi. Endi o'zingiz o'ylang, qanday qilib, mening lolaqiz'aldoqday nozik ko'nglimga uning "ishqalanish kuchi" to'g'ri keladi? Men juda-juda azob chekdim. U meni tushunmasdi. Tushunishni ham istamasdi.

Bayt:

Har kechada g'ussalarim borayotir

orta-orta,

Kelib xolimni so'rmasan,

jigarso'xtam, torta-torta...

To'yimzidan ikki oy o'tar-o'tmas men maktabimizdagi ximiya o'qituvchisiga ko'ngil qo'ydim. U ham tez orada xotinini qo'ydi-yu, menga uylanishga majbur bo'ldi. Nega majbur bo'ldi, deb hayron bo'lmang. Sevgi shunday qudratga egaligini ijodkor sifatida yaxshi bilasiz. Ammo bu turmushimiz ham uzoqqa cho'zilmadi. Chunki tez kunlarda birinchi erimdan homilam borligini zolim qaynonam



ilg'ab qoldi-yu, hayotimizni ostin-ustun qilib yubordi. Men chekmagan jabr-u-jafu, qayg'u sitamlar qolmadi. Ko'zyoshlarim daryo bo'lib oqdi. Ammo nachora...

O'ning o'n beshi yorug' deganlaridek, o'sha kezlari jismoniy tarbiya o'qituvchisi Pahlavon aka jonimga ora kirdi. U o'zining baquvvat qo'llari bilan meni tushkunlik botqog'idan tortib oldi. Ikki haftacha baxt-u farog'at og'ushida yashadik. Ammo badhiyat kimsalar biz Sarqo'rg'ondagi shiyonlarning birida muhabbat dostonini baralla kuylab yurganimizni ota-onamizga, eng yomon, Pahlavon akamning yalmog'iz xotiniga yetkazibdi. Yovuz va johil kimsalar bizning beg'ubor orzularimizni poymol qilishdi: maktab pedsovetida muhokama qilib, ikkimizni ishdan mosuvo aylashdi. Bu orada men dekretga, Pahlavon akam chet elga ravona bo'ldik.

Oradan kunlar o'tdi. Yana kutilmaganda bosh ustimda ishq quyoshi charaqlab, baxtim ochilib ketdi. Tug'ruqxona rahbari Sopponqul aka mening jamolimni ko'rib, ko'z ostiga olib qo'rgan ekan, ko'zim yorib, chillam chiqar-chiqmas qovun sayliga klaf qilib, shaxsan o'zi avtoulou yubordi. Shunday qilib, biz muhabbatdan sarxush bo'lib Sirdaryo bo'ylarida ko'p va xo'p qovunxo'rlik qildik. Lekin men sho'rpehonaning baxti qora yozilmish ekanmi, qovunga to'yan Sopponqul maraz kimdandir eshitgan uzunquloq mish-mishlarda ishonib, mening dong'im maktab chog'imdayoq butun tumanda ovoza bo'lganini yuzimga soldi-yu, nomardlarcha mashinasiga o'tirib meni hijronlarga tashlab ketdi. Shu tariqa Sayhun sohilida qon yig'lab qolaverdim.

Istaram issiqdigi, ko'zga yaqinligim, eng muhimi, qalbim pokligi hamma joyda ish beradi, kishilar diqqatini tortmay qo'ymaydi. Bu ne toleki, o'n daqiqa o'tar-o'tmas istiqbolimda o'sha to'qaylarning egasi bo'lgan fermer Olimjon aka

oq otda namoyon bo'ldi. Biz ikki yosh beixtiyor bir-birimizga dil bog'ladiq, bir umr ajralmaslikka ahd qilib, bearmon yashayberdik.


Azizim Javlon akajon, men xatim boshida juda ko'p nohaq jafolar chekkanimni aytib o'tgandim. Bu gal ham charxi-kajraftor mendan chirtta yuz o'girdi. Bir haftalik turmushimiz kutilmaganda qamish chayladek ag'darildi. Olimjon akam xayr-ma'zurni nasiya qilib, oq otini choptirgancha g'oyib bo'ldi. Amal-taqal qilib ona qishlog'imga qaytib kelgach, arizapariya qilib ishga tiklandim-u, g'alati ahvolga tushdim: Olimjon akamdan yukli bo'lib qolgan ekanman. Qisqasi, ko'p sarguzashtlardan keyin o'rtancham Saodatxon Qaraq'andadagi sarishta bir ovulda dunyoga keldi.

Musofirlikning noni qattiq deyishadi. Musofir bo'lmaguncha musulmon bo'lmaysan, degan gap ham bor. Sizning qimmatli vaqtigingizni olmaslik uchun muhtasab aytsam, safarga yolg'iz borib, uchovlashib qaytdik. Ya'ni, Saodatxondan keyin Sarsanbay ismli azamat o'g'ilchali ham bo'lgandim. Hozirda siz saylangan okrugda besh nafar farzandim bilan sizdan avval noiblik qilgan Miltiqboy akadan esdalik bo'lib qolgan ikki sotixli kottejda muqim yashab kelmoqdaman. Yetti yilki, vaqtincha ishsizman. Meni qora niyatli badkirdor hamkasblarim axloqsiz deb mag'zava to'kib, diplomim go'yo qalbaki ekanini ro'kach etib, maktabdan chetlatishga muvaffaq bo'lishgan. Axir qanaqasiga diplomim soxta bo'lsin, uni shaxsan tuman tunqorovuli Yorqinjon Pinhonov tug'ilgan kunimga tortiq etgan bo'lsa?! Bu yog'ini so'rasangiz, shukur, farzandlarim maktabda, bog'chada javlon urishyapti, faoliyatimga xalal berishmaydi, eslari ko'p.

Javlonjon akajonim, maktubimdan murosul shuki, tez-tez hududimizga kelib turibsi, bir oyog'ingiz shu yerda bo'p qolgan. Tuman rahbarlari bilan kelishib, saylovchingiz bo'lgan menga mushfiq yolg'iz ayolga olti sotixli kottej olib bersangiz. Bitta xonasini o'zingizga mehmonxona qilib berardim. Qanaqadir shubhali mehmonxonalarda yotib yurmasdan, mening g'amxo'rligimdan bahramand bo'laringiz. Osh-ovqat, kir-chir, issiq-sovug'ingiz mening mehrl e'tiborimda, yondosh xonangizda dingquloq yashardim, vaqti be-mahal kirdi-chiqdi qilib turardik. Men nega bu qadar dadil klaf tashlayotganim boisi shuki, u kuni oynayi jahonda she'r o'qiganingizni ko'rib qoldim. Aniq bildimki, siz ham meni unutolmay qiynalib yuribsi. Ikki uchrasuvimiz hamon qalbingiz to'rida. "Gulzoringni ko'zlab turar bulbulim" degan satringizni men judayam teran tushundim va chuqur his qildim.

O'zinning bulbuligo'yo shoirginam, siz menga boshpana undirib, g'amxo'rlik qilish barobarida, ham noiblik majburiyatigingizni, ham insoniylik burchingizni hamda yigitlik vazifangizni sharaf bilan bajargan bo'laringiz. Aks holda va'daboz Miltiqboy noibga o'xshab, bemahal g'oyib bo'lib, yosh ketmang, deymand-da. Sizdan qondiruvchi javob kutib, yo'llaringizga intizor ko'z tikib qoluvchi saylovchingiz: Chamandagul Ochildiyeva".

Oqqo ko'chiruvchi **Mulla XUNOB**




DAUNSHIFTING – mas'uliyati kamroq yumush va kamroq kuch-quvvat talab qiladigan ish bilan mashg'ul bo'lish, tinch va osuda hayot tarzi demakdir. Odatda odamlar yoshi ulug'lashib boravergach stressdan qochish maqsadida daunshifting qilishni rejalashtira boshlashadi.



FAN-ZONA – sahnaga juda yaqin joylashgan ma'lum bir miqdorni o'zida jamlagan joy. Bu joyga o'rnatilgan kishi asosan suratga olishi yoki ijrochini imkon qadar yaqinroqdan ko'rishni maqsad qilgan bo'ladi.



GOLODOMOR – Sobiq sovet ittifoqi tomonidan aniq maqsadlarni ko'zlab, ongli ravishda vujudga keltirilgan ocharchilik siyosati.



TAYM-KOD – video yoki audio materialni aniq sinxronlash uchun ishlatiladigan raqamli kod. Podkast mualliflari tomoshabin yoki tinglovchiga qulay bo'lishi uchun har bir savol va unga berilgan javobning boshlanish vaqtini material izohida ilova qilishadi. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi taym-kodlarni ko'zdan kechirib, butun boshli videoni emas, o'zini qiziqtirgan qismini ko'rib qo'ya qoladi.

TILBILIM



MUSHUK VA SHUMSHUK

Mushuk so'ziga shuk so'zi asos bo'lgan. Men bu haqda aniq ma'lumotga "Navoiy asarlari lug'ati"ning 1973-yildagi nashrida duch kelganman. O'sha manbada shuk so'zi "pisib, poylab, tikilib yotgan" ma'nolarini anglatadi deb izohlangan. Bunga shumshuk so'zini ham qiyoslash mumkin. "Shumshayma!" degani "pisib turma" degan ma'noni bildiradi.

*G'ayri ulkim, yotibon yo'lungda shuk,
Qormobon qoningni ichkan bir mushuk.*
(Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asaridan).

Mahmud Koshg'ariyda shuk so'zi "tinchlantiruvchi", "to'xtatish" so'zi sifatida izohlangan. Ya'ni, ko'rsatkichi barmog'ini labi ustiga qo'yib "Tss!" deganlariday. E'tibor qilsangiz, Koshg'ariy izohida ham "pisish, poylash" ma'nosiga yaqinlik bor.

Yusuf Xos Hojibda shunday misra bor:

*Nelyg shyk turur-sa na boldi ozuy
Ma'nosi:*

Nega jim turibsan, senga ne bo'ldi?

Yusuf Xos Hojib bu yerda shyk so'zini "jim turish" ma'nosida qo'llagan. XI-XIV asr eski turkiy til manbalarida "mushuk" ma'nosi machi hamda chetyk zoonimlari bilan ifodalangan. Myshyk (moshyk) so'zi ilk bor "Qissasi Rabg'uziy"da qayd etilgan.

Eshqobil SHUKUR

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Xayriya qutilari qanday qo'yiladi?

Xayriya qutilari faqat nodavlat-notijorat tashkilotlar yoki yuridik shaxslar tomonidan belgilangan tartibda qo'yilishi mumkin.

Bunda xayriya qutisi shaffof idish bo'ladi, joylashtiriladigan manzil oldindan e'lon qilinadi, uni ochishda guvohlar qatnashadi va bu jarayon videotasvirga olinib, jamoatchilikka e'lon qilinadi. Ya'ni, xayriya mablag'i haqiqiy muhtoj odamga "pati yulimay" yetib borishi jamoatchilik nazorati ostida, shaffof bo'lishi kerak.

NNTlar naqd pul shaklida xayriya yig'a oladimi?

Albatta, yig'a oladi. Faqat xayriya qutilari orqali. Ya'ni, har bir kupyura yoki tanga, albatta, belgilangan tartibda o'rnatilgan shaffof xayriya qutisiga tushib, ko'pchilik ishtirokida hisoblanib, hujjatlari qilinib, hisoboti o'z vaqtida berib boriladigan bo'lishi kerak.

Homiylik xayriyasini olganlarga boshqa yordam va imtiyozlar berilmaydimi?

Unday emas. Qonunning 14-moddasi quyidagi mazmunda uchinchisi qism bilan to'ldirilmoqda:

"Homiylik oluvchilar tomonidan homiylik xayriyalarining olinishi ularga qonunchilikda belgilangan boshqa yordam turlaridan, to'lovlardan yoki imtiyozlardan foydalanishini cheklash yoki to'xtatish uchun asos bo'lmaydi".

Mol-mulk shaklidagi xayriyalar-chi? Ular qanday qilinadi?



Xayriyalar mol-mulk shaklida yig'ilgan taqdirda, NNT yoki yuridik shaxs tomonidan qabul qilib olinib, mol-mulk ro'yxati shakllantirilib, uning turi, miqdori (hajmi) ko'rsatilgan holda dalolatnoma tuziladi.

Shahnoza SOATOVA
Facebook

"Jadid" gazetasi jamoasi hamda nashr muassisarlari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi, shoir Bahodir ISO vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik bildiradi.

Jadid

Muassislar:

O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI

"SHAHIDLAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Shahriyor Ibrohimov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 8 568
Lotin yozuvidagi adadi – 12 060
Media kuzatuvchilar – 31 354
Buyurtma: G – 240.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxonasi: (71) 203-24-20
Devonxonasi: (97) 745-03-69
jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00
Sotuvda narxi erkin.

